

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
A.QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

“O'ZBEKISTON TARIXI” KAFEDRASI

**Tarix fakulteti IV kurs talabasi
Rustamova Nafisa**

**“Tasdiqlayman”
Tarix fakulteti dekani v/b:
_____ dots.A.Tangirov
« ____ » _____ 2011 yil**

***BITIRUV MALAKAVIY
ISHI***

**Mavzu: XVIII-XIX asrlarda Qo`qon xonligidagi ijtimoiy-siyosiy
va madaniy hayot**

Ilmiy rahbar:

t.f.n.dots.R.Nurqulova

Taqrizchilar:

**Ushbu BMI “O'zbekiston tarixi” kafedrasining « ____ » _____dagi
« ____ » _____sonli majlisida muhokama qilingan va himoyaga tavsiya etilgan**

Jizzax – 2011

**Mavzu: XVIII-XIX asrlarda Qo`qon xonligidagi ijtimoiy-siyosiy
va madaniy hayot**

Reja:

Kirish.

I-bob. Qo`qon xonligining tashkil topishi va uning ijtimoiy siyosiy hayoti

- 1.1. Qo`qon xonligining tashkil topishi.
- 1.2. Qo`qon xonligining ijtimoiy hayoti.

II-bob. XVIII-XIX asrlarda Qo`qon xonligining madaniy hayoti.

- 2.1. Qo`qon xonligida adabiyot va san`atning rivojlanishi.
- 2.2. Me`morchilik va hunarmanchilikning ravnaqi. Xalq amaliy san`ati.

III-bob. Qo`qon xonligining tugatilishi

- 3.1. Qo`qon xonligi hududlarining Rossiya Imperiyasi tomonidan bosib olinishi.
- 3.2. Qo`qon xonligining tugatilishi va Farg`ona viloyatining tashkil topishi.
- 3.3. Mavzuni yangi pedagogik texnologiyalar asosida o`rganilishi.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati. Prezident asarlari, Asosiy adabiyotlar-
Alfabet bo`yicha.

Kirish

Mavzuning dolzarbligi:

Mustaqil O'zbekistonning uzoq va yaqin o'tmishiga bo'lgan qiziqish ortib borayotganligi davrimizning o'ziga xos xususiyatidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov takidlaganidek "Mustaqillik yillari o'z o'tmishimizni o'z madaniyatimizni xolisona bilib olish davridir. Bu jahon hamjamiyati tarix oldidagi vazifamizni anglab olish davridir"¹. "O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, o'tmishimizni –tariximizni tahlil qilib, xolisona o'rganish imkoniyatiga ega bo'ldik. Bu esa biz yosh tarixchilarning oldida nihoyatda katta mas'uliyat turganidan dalolat beradi. Istiqlol yillarida milliy ma'naviyatimizning tiklash qadimiy tariximizni keng xalq ommasiga yetkazish borasida ulkan ezgu ishlar amalga oshirildi". –"Har qaysi xalq o'z taraqqiyotini yuksaltirish uchun –tarixiy xotira masalasi alohida ahamiyat kasb etadi"² –deya ta'kidlagan edi muhtaram Prezidentimiz o'z asarlarida.

Darhaqiqat, o'zbek xalqi tarixi, o'zbek davlatchiligi tarixi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotining rivojlanishi alohida shaxslar tarixi bilan bevosita bog'liqdir.

XVIII-XIX asrlarda Qo'qon xonligida ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayot masalasini o'rganib tadqiq qilish bugungi kunimizning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Negaki, mustaqillik sharofati bilan o'zgalarga qarashlik tobelik va bog'liqlik qismatidan butkul xalos bo'ldik. Egilgan, majruhlangan qaddibastimizni tiklab, ona yurt taqdirini qo'lga olib uning chinakam sohibiga aylanib katta ijtimoiy faoliyatga yo'l tutdik, kelajagi buyuk, huquqiy, demokratik davlat, ochiq, ozod, rivojlangan fuqarolik jamiyatini bunyod etish borasida jadal sa'y harakat etmoqdamiz.

Biz shu asnoda buyuk kelajagimizni o'z qo'llarimiz bilan yaratib borar ekanmiz bunda shubhasiz, baquvat tarixiy ildizlarimiz, teran ma'naviy

¹ I.A. Karimov. O'zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo'lida T.. "O'zbekiston", 1995, 18-bet.

² I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. T., "Manaviyat", 2008, 14-bet.

tomirlarimizga mahkam tayanmog`imiz, ulug` ajdodlarimiz kimlar bo`lganini, bizlarning nasl-nasablarimiz kimlarga borib taqalishini, ular qachonlardan buyon bu hudud sarhadlarini vatan tutib, unda yashab, keyingi minnatdor avlod, nasllarga qanday boy moddiy va ma`naviy meros namunalarini qoldirib kelganligini va nihoyat bu jarayonlar silsilasi davomida ularning o`z shakl-shamoili, ma`naviy, ruhiy qiyofasi turmush tarzi har qanday jiddiy o`zgarishlarga uchrab borganligini bilmog`imiz kerak bo`ladi.

Shu bois mazkur mavzuni ilmiy asosda yoritishni o`rganishni o`z burchimiz deb bildik.

Bitiruv malakaviy ishning davriyligi:

Farg`ona vodiysining eng qadimgi shaharlaridan biri Qo`qon to`g`risidagi dastlabki ma`lumotlar X-asrga to`g`ri keladi. Uni XIII asrda mo`g`ullar xonavayron qilgan. Hozirgi shahar 1732-yil qurilgan. Fusunkor Farg`ona vodiysiga kiraverishda, qulay joyda bo`lganidan tezda qaytadan tiklanadi va xonlik poytaxti bo`lib qoladi. Qo`qon xonligi Markaziy Osiyodagi feodal davlat bo`lib 1709-1876 yillarni o`z ichiga oladi.

XVIII asrning boshlarida Farg`ona vodiysi Buxorodan ajrab chiqadi va mustaqil davlatga aylanadi. U Namangan, Qo`qon Andijon va Marg`ilon viloyatlaridan iborat edi. Xon avlodlari o`rtasidagi kurashlar natijasida hokimiyat o`zbeklarning ming urug`idan bo`lgan Erdonobiy qo`liga o`tadi shu davrda Qo`qon hukmdorlari Farg`ona vodiysidagi hokimiyatni qo`lga kiritib, Buxoro xonligidan ajralib chiqadilar va harbiy kuchlar yordamida qo`shni tumanlar hisobidan o`z hududlarini kengaytirishga harakat qiladilar. Natijada O`rta Osiyo siyosiy maydonida Qo`qon xonligi paydo bo`ldi.

Qo`qon xonligi siyosiy tarixidagi ko`plab voqealar xonlik hududida yashagan xalqlarning ichki hayotida ham, uning atrofidagi xalqlar va mamlakatlar hayotida ham katta iz qoldirgan. XIX asr boshlarida bir necha ulislarga bo`lingan kichkina davlat bo`lgan. Qo`qon xonligi 20-30 yil mobaynida O`rta Osiyodagi eng katta davlatlardan biriga aylanadi. Hali bu

xaqida batafsil B.M.I mizning keyingi sahifalarida bu muammoga yana qaytamiz.

Mavzuning o`rganish darajasi:

Ushbu ishda ko`rilayotgan mazkur muammo malakaviy ish mavzusi sifatida va ayniqsa, Qo`qon xonligining tarixiy tadqiqoti sifatida va ayniqsa, Qo`qon xonligining tarixi tadqiqoti sifatida nisbatan kam o`rganilgan.

Bugungi kunda yosh avlodni tarixini chuqur o`rganmasdan turib kelajak yo`q shiori ostida tarbiyalash, tarixiy ongni shakillantirish borasidagi ma`naviyt –ma`rifiy ishlarni rivojlantirishda o`zbek ziyolisi Mirzo Olim Maxdum Hojining “Tarixi Turkiston” asari biz uchun muhimdir.

Umuman Qo`qon xonligi va shu nom bilan ataluvchi davlat haqida yaratilgan mahaliy, tarixchilarning asarlari soni 30dan oshadi³.

Keng ko`lamdagi bu manbalarda xonlikning siyosiy tarixi, madaniyati va uning turli hududlarida yuz bergan voqealar tafsilotlari bayon qilingan. Qo`qon tarixchilari maktabi va ularning namoyandalari hamda asarlariga bag`ishlangan maxsus tadqiqot haligacha yaratilgan emas. Ularning asarlarida juda kam qismi ilmiy muomalaga kiritilgan yoki tarjima etilib chop qilingan.

Birinchi “Qo`qonshunosh” olimlarimiz Qo`qon tarixi va madaniyatiga doir asarlar yozgan mahaliy tarixchilar hisoblanadi.

Ular turli manbalardan voqea va hodisalarning ishtirokchilari bergan ma`lumotlardan foydalanib yaratganligi bois asarlari muhim hisoblanadi.

Keyinchalik turkistonlik va rossiyalik olimlardan R.R. Totinin, D.NB.Ramanovskiy, R.Xanikov, A. Makiev, V.Velyaminov-Zerkov, V.V. Grigorev, A.P.Xortoshxin, N.Tetrovskiy, A.F. Midendorv, A.Fedrensko, A.Kun, V.V. Namvkin, I. Kalivkina, N.Ya Buchurin hamda Xorijlik olimlarning bazilari mahaliy mualliflar asarlaridan ham foydalanib, o`z tadqiqotlarini yaratgan.

So`ngra A.A.Semyonov, R.N.Nabiyev, A.P., Qayumov, A.O`rinboyev, P.P. Ivanov, V.M. Ploskix, V.A. Romodin, N.D. Mikluxo-Maklay, B.V Linin, I.A.Stori, F.A.Azdaev, H.Bobobekov, R.K. Bekmaxonov,

³ Mirzo Olim Maxdum Hoji. “Tarixi Turkiston”. T., “Yangi asr avlodi”, 2008, 4-bet.

A.Z. Vbalidov M.Qutlug'ov, H.Sodiqov, T.Saidqulov, X.G'G'ulomova boshqalar o'z asarlarida xonlikning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotini yoritganlar.

Bugungi kunda Qo`qon tarixchilari maktabi namoyindalari asarlaridan sanalmish Muhammad Hakimxonning "Muntaxab ut-tavorix" asari (Dushanbe, 1984-1985), Tajir Xo`jandiyning "G`aroyibu sipoh" (Xo`jand, 1991), Mirzo Olim Maxdum Hojining "Tarixi Turkiston" (Qarshi 1991), Mirzo Olim Mushrifning "Ansob us-salotinva tavorix al-xavoqin" (Qo`qon xonligi tarixi nomi bilan nashr etilgan. T. 1995), Muhammad Yunus Tibning "Tarixi aliquli amirlashkar (sharq yulduzi 1996, 1-2-son) va "Tuhfai Tolib (Toshkent- tokio, 2002), Muhammad Aziz Marg`iloniyning "Tarixi Aziziy" (Toshkent,1999)nomli asarlar chop qilingan. Tarixchi Haydarbek Bobobekovning ta`kidlashicha barcha musulmon tarixchilari va ayrim rus mualliflari Qo`qon xonlari sulolasiniOltin Beshik bilan, u orqali Bobir bilan bog`laydilar<sup>4</sup>. Qo`qon xonlarining nasabnomalarini Oltin beshik bilan bog`liqligi Niyozmuhammadning "Tarixi Shohruhiya", Mirzo Olim Mushrifning "Ansabu savalatun va tavorixul Havoqin", Muhammad Solix Toshkandiyning "Tarixi jadidai Toshkand", Fozilbek Otabek o`g`lining "Mukammali tarixi Farg`ona ", B. Haluvnikning XX asr 80-yillari o`rtalarida Qozonda chop etilgan. Qo`qon xonligining qisqacha tarixi' (Кратная история Кокондского Ханстве) Ibratning "Farg`ona Tarixi", Mulla Shamsiddin Shavqiyning "Shohnoma" dostonida, Muhammad Aminbek Xudoyorxon o`g`lining "Turkiston viloyatining gazetii" ning 1894-yil sonlarida o`zbek va rus tillarida e`lon qilingan "Farg`ona viloyatlari xonlarining xususidagi voqealar" nomi asarlarida adabiyotshunos, praffessor Sharif Yunusovning maqolalarida va boshqa ko`plab manbaalarida o`z aksini topgan.

Ishning asosiy maqsadi juda ko`plab materiallar va ilmiy adabiyotlar hamda eng yangi ma`lumotlarga tayangan holda mavjud oldimizda turgan muammoni tarixiy yoritishdan iborat. Yuqorida takidlanayotgan ma`lumotlarga tayanib shuni aytish mumkinki Qo`qon xonligi o`zining ijtimoy iqtisodiy

⁴ Bobobekov Haydarbek. Qo`qon tarixi. T., "Fan", 1996, 20-21-bet.

siyosiy va madaniy rivojlanish bosqichida turli xususiyatlar va tarixiy qonuniyatlaraga ega bo'lgan.

Qo`qon xonligi siyosiy tarixidagi ko`plab voqealar xonlik hududida yashagan xalqlarning ichki hayotida ham, uning atrofidagi xalqlar va mamlakatlar hayotida ham ulkan iz qoldirdi.

Ushbu o`rinda odamlar har yoqlardan ko`chib kelgani oqibatida Farg`ona vodiysida XVIII asrning ikkinchi yarmida XIX asrning birinchi yarmida ,millatlararo va qabilalararo munosabatlar ancha murakkab bo`lganligini ham e`tirof etmoq kerak.

Mazkur B.M.I.da Qo`qon xonligi tarixini o`rganishda quyidagi masalalarni yoritishni o`z oldimizga vazifa qilib qo`ydik. Bular:

1. Qo`qon xonligining tashkil topishi shart-sharoitlarni o`rganish;
2. Qo`qon xonligining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga baho berish;
3. XIX asrda Qo`qon xonligining madaniy hayotini tahlil qilish
4. Qo`qon xonligining o`zbek davlatchiligi tarixida tutgan o`rnini boshqa xonliklar bilan qiyosiy solishtirib o`rganish;

Shuningdek, tadqiqot ishini yoritishda shoir, tarixnavislik, tilshunos va islomshunos olim Ishoqxon To`ra Ibratning “Tarixi Farg`ona “ asaridan zaruriy manba sifatida foydalanildi. Ushbu asar Toshkentda “Ma`naviyat nashriyotida 2005 yilda chop etilgan.

Masul muharrir: O`zbekiston Respublikasi fan arbobi filologiya fanlari doktori, professor Begali Qosimovdir.

Qisqacha ushbu asar to`g`risida to`xtalamiz:

Ishoqxon Ibrat ham muarrix olim sifatida “Tarixi Farg`ona” asarida tarixiy voqealarga xon va beklarning munosabatini tasvirlashga alohida e`tibor bergan. Amir Nasrulloning 1842-yili Qo`qondagi mash`um qatli om uyushtirishiga qarshi chiqadi. Ibrat Amir Nasrullo kabi kaltabin burnidon narini ko`ra olmaydigan podsholarning yaramas qilmishini qoralaydi. Ishoqxon Ibrat geografik olim sifatida “Tarixi Farg`ona” asarida Farg`ona vodiysi undagi shahar va qishloqlarning to`la geografik tavsifnomasini beradi, o`lkadan oqib

oʻtadigan daryolar iqlimi, havosi, yerlari, hayvonotdunyosi, vodiya yashaydigan xalqlar, ularning hunarmanchiliklari, ekinlari, savdo-sotiq ishlari va yer osti qazilma boyliklariga atroflicha toʻxtalib oʻtadi.

Masalan, asar muallifi Chust shahri haqida quyidagilarni yozadi: “Chust shahri Namanganni (ng) gʻarb tarafida, 136 chaqwirim gʻarbda boʻlib, oʻng qiblasiga Pop qasabasiga janubi daryoga mutassil boʻlib, shimoli Olmos va Chodak qasabasiga yopishadur ...”⁵

Boshqa shahar va qishloqlar haqida ham ushbu manbada shunday toʻliq sinografik va geografik maʼlumotlar beriladi. Muallifning yana bir katta yutuqi shundaki, u oʻz asarini sodda, oʻsha davr adabiy til meʼyoriga toʻla rioya qilgan holda yaratgan. Uslubi, tasvirlash doirasining kengligi jihatidan “Tarixi Fargʻona” Boburning buyuk Boburnoma asari taʼsirida yozilgani sezilib turadi.

Bitiruv malakaviy ishning mazmuni :

Mazkur bitiruv malakaviy ish Kirish, 3ta bob, 7ta paragraf va xulosa hamda foydalangan adabiyotlar roʻyxatidan iborat.

⁵ Ishxon Toʻra Ibrat . Fargʻona tarixi T., “Maʼnaviyat”, 2005, 27-b.

I-bob. Qo`qon xonligining tashkil topishi va uning ijtimoiy siyosiy hayoti

1.1. Qo`qon xonligining tashkil topishi.

XIX asrning birinchi yarmida Qo`qon xonligi hududiy jihatdan O`rta Osiyodagi yirik davlat edi. Qo`qon xonligi sharqda Sharqiy Turkiston, g`arbda Buxoro amirligi va Xiva xonligi bilan chegaradosh edi. Xonlik hududi shimolda uchala qozoq juzlarini batamom o`ziga bo`ysundirib Rossiya bilan chegaralanardi. Xonlikning janubiy chegaralari Qorategin, Ko`lob, Darvoz, Sho`g`non singari tog`li hududlarni o`z ichiga olardi. Bu hududlar uchun Buxoro amirligi bilan qonli urushlar bo`lar, ular qo`ldan-qo`lga o`tardi. Qo`qon xonligi hududi Buxoro amirligi va Xiva xonligidan farqli o`laroq sersuv daryolari, so`lim vodiylari, serhosil yerlari ko`p edi. Xonlikning markazi Qo`qon, Marg`ilon, O`zgan, Andijon, Namangan kabi yirik shaharlar joylashgan Farg`ona vodiysi edi. Toshkent, Chimkent, Turkiston, Avliyoota, Pishtak, Oqmasjid kabi yirik shaharlar ham Qo`qon xonligi tasarrufida edi. Qo`qon xonligida aholi nisbatan zich joylashgan bo`lib, taxminan, 3 mln. kishi edi. Xonlikning poytaxti Qo`qonda sakson ming, Toshkent shahrida oltmish ming kishi yashar edi.

Qo`qon xonligi aholisining ko`pchilik qismi o`zbeklar edi. Shuningdek, xonlik aholisi tojiklar, qirg`izlar, qozoqlar, uyg`urlar, qoraqolpoqlardan iborat bo`lgan. Bular bilan yonma-yon yahudiylar, tatarlar, xindular vakillari yashar edi.

Minglar urug`idan bo`lgan yirik zodagon Shohruxbiy chodak xo`jalari yordamida Farg`ona vodiysida buxoro amirligidan mustaqil bo`lgan mavqeini egallab, 1709-yilda Qo`qon xonligiga asos soladi.⁶

Tarixchi H.Bobobekov ham boshqa ko`plab musulmon va rus tarixchilari kabi Qo`qon xonlari sulolasini Oltin Beshik bilan u orqali Bobur bilan bog`laydi.

Keling, shu o`rinda butun e`tiborimizni Oltin Beshik afsonasiga qaratsak: Yangi tashkil topgan Qo`qon davlati hukmdorlari –o`zbeklar shajaralarini ota-

⁶ R.Shamsuddinov, Sh Karimov, O`. Ubaydullayev. Vatan tarixi. T., "Sharq", 2010, 98-bet.

bobolari bilan jangu jadalda olishib, omadi yurishmay, Vatandan bosh olib ketgan ammo qalami va jasorati tufayli nomini qoldirtgan Bobur Mirzo bilan bog'lashga urinib g'aroyib afsonalar to'qidilar. Mana shunday hikoyalardan biri qator tarixiy bitiklarda qayd etilgan Oltin beshik afsonasidir. Biz ushbu afsonani atoqli tarixchimiz Ishoqxon Junaydulloxo'ja o'g'li Ibratning "Farg'ona tarixi" asari asosida hikoya qilib beramiz⁷.

Ho'qand shahri Farg'ona iqlimida bo'lmagan. Uning o'rnida tevarakda Targ'ova Chonkat va Saroy degan qishloqlar bo'lgan ekan.

Mana shu qishloqlarning biriga aniqrog'i Targ'ovada bir kishi bo'lib, u bu qishloqlar xalqi xonzodasi bo'lmasa, itoat qilmasligini bilib bir tadbir ishlatgan ekan.

U Andijon xonlaridan Bobur ibn Umarshayxning shu qishloqlarga yaqin joydan qochib o'tganini bilgani uchun o'zining emizikli o'g'liga juda qimmatbaho liboslar kiydirib, oltin beshik yasatib, beshikni noyob kimxobu atlaslarga o'rab, Bobur Mirzo o'tib ketgan yo'l chetida yashirib qo'ygan ekan. Begona odamlar olib ketmasligi uchun bir necha xizmatkorini soqchi ham qilib qo'yibdi.⁸

Bir necha kundan so'ng uch qishloqdan suv ochmoq uchun chiqqan odamlar mana shu atayin qoldirilgan bola yotgan beshikka duch kelib qolibdilar. Uch qishloq ahli bola ustida talashib qolibdilar. Oxiri ichlaridan bir kishi chiqib bu talashni chek tashlash yo'li bilan hal qilishni taklif qilibdi. Hamma rozi bo'libdi chek tushishiga qarab oltin beshik –saroylik larga uning yopuqlari – chonkatliklarga bola esa targ'ovulliklarga nasiv qilibdi. Bolani tarbiyalariga olgan targ'ovulliklar unga Oltin Beshik deb ism berishibdi.

Ibrat ushbu asarida yana quyidagilarni bayon qiladi. "bu Oltin Beshikni (ng) xalqqa xonzoda ekanligini ravshan qilmoqda necha ilova so'zlar qo'shilib bolani(ng) boshida bulut soya qilgan ekan, kiyik emizib turgan ekan va qush soya solgan ekan, deb xalqning qulog'iga o'rnatib to ungacha yigit bo'lib,

⁷ Ishoqxon To'ra Ibrat. "Farg'ona tarixi" T., "Ma'naviyat", 2005, 28-bet.

⁸ Xurshid Davron Samarqand xayoli Y. "Kamalak", 1991, 288-bet.

hurmati va ruxsori ziyoda bo`lib xushaxloq va xushmuruvvat bo`lsa ham Tirg`ova qishlog`idan bo`lak xalq anqiyot (itoat qilmay) har bir jamoada bir biy bo`lib kelsa ham Oltin Beshikning biyligi shuhratliroq bo`lib, mundin olti avlod bir suratda o`tib, yettinchi avlodga kelganda bul kishi xoni Hoqqand bo`lub...nihoyatda so`zi nufuzli bo`lib xon ismini rivojlantirib Shohruhxon deb shuxrat topgan...⁹

Bu g`aroyib afsona bejiz yaratilmagan. Yillar o`tiv olis Hind tuprog`idan Bobur Mirzoning sog`inchli g`azallari tog`u sahrolari oshib kelib Farg`ona qolaversa, butun Movarounnahr ahli dilini zabt etadi. Xalq dilidagi mana shu o`chmas mehni sezib-bilib yurgan hukmdorlar o`z nasl nasablari vatangado podshoh nomi bilan bog`lab, shu mehr tufayli xalqning o`zi ham g`aroyib afsonalar to`qiydi.

Farg`ona vodiysining eng qadimgi shaharlaridan biri Qo`qon to`g`risidagi dastlabki ma`lumotlar X asrga to`g`ri keladi. Uni XIII asrda mo`g`ullar xonavayron qilgan. Hozirgi shahar 1732-yilda qurilgan, fusunkor Farg`ona vodiysiga kiraverishda qulay joyda bo`lganidan tezda qaytadan tiklanadi. Va xonlik poytaxti bo`lib qoladi¹⁰.

Qo`qon xonligi Markaziy Osiyodagi feodal davlat bo`lib 1709-1876 yillarni o`z ichiga qamrab oladi. Xonlikni hududi 1841-yilgi ma`lumotga qaraganda asosan hozirgi Farg`ona, Namangan Andijon, Toshkent, Xo`jand viloyatlari Qirg`iziston Respublikasi va janubiy Qozog`iston sarhadlarini o`z ichiga olgan. Orenburg va Omsk shaharlari Rossiya imperiyasining xonlik bilan chegaradosh viloyat markazlari hisoblangan.

Xonlikning vujudga kelishi to`g`risida to`xtaladigan bo`lsak, XVI asrda Markaziy Osiyoda tinimsiz o`zaro feodal janjal va urushlar natijasida ikkita mustaqil musulmon davlati: Buxoro va Xiva xonliklari paydo bo`lgan. Ular ham bir biri bilan tinimsiz janglar qilib turishdi. Bu janglar natijasida Buxoro xonligi kuchsizlanib, Buxoro hukmdori Abdulazizxon taxtdan vos kechib Makkaga

⁹ Ishoqxon To`ra Ibrat. Farg`ona tarixi. T., "Ma`naviyat", 2005, 91-92 bet.

¹⁰ G Xolliyev, X. G`ulomov. O`zbekiston tarixi. T., "Universitet". 1997, 24-bet.

ketadi. 1680-yil Buxoiro taxtiga Subhonqulixon o'tirib o'z davlatini mustahkamlamoqchi bo'ldi. Uning hokimlik davrida ham o'zaro urushlar davom etdi. Xalq qashoqlashdi. Ochlik avj oldi.

1702-yil Subhonqulixon o'ldi. Taxtga esa uning o'g'li Ubaydulloxon o'tirdi. Uning hukmronlik davrida ashtarxoniylar hukmronligi inqirozining eng so'ngi cho'qqisiga chiqqan edi. Xon darvishlarning yer egaligini cheklashga harakat qiladi. Va nufuzli juybar xo'jalari bilan to'qnashadi. Chunki Ubaydulloxonga ular soliq ham solmoqchi bo'lgandilar. Oqibatda, u darvishlar jamoasining madadkorligidan o'zini mahrum qilib qo'ydi. 1709-yili Farg'ona vodiysida chodak xo'jalari qo'zg'alon ko'tarib Shohruhbiyni xon deb e'lon qildilar va mustaqil davlat tuzdilar.

Shohruhbiy ibn Ashur Muhammad-Qo'qon xonligiga asos solgan ming qabilasining boshlig'i. U taxminan 1669—1970-yillarda tavallud topgan. Ming urug' XVIII asrning boshlarida siyosiy hukumatni xo'jagan sulolasining qo'lidan kuch bilan tortib olgan edi.¹¹

Xo'jalar yoki xo'jagan sulolasi ruhoniylar nasab sharqiy Turkistonning hokimlari bo'lgan. Sulolaning asoschisi Maxdumi A'zamxo'ja Ahmad ibn Sayid Jaloliddin bo'lib, u "Xo'jagan" tariqatiga mansub. (Yashagan yillari: Hijriy 956-milodiy 1542 yillar) bu xo'jalar sharqiy va g'arb Turkistonda hukm surgan chig'atoy hokimlari davrida katta mansab va vazifalarga ega bo'lib iqtisodiy siyosiy kuchlarga sohib bo'ladilar.

Ushbu xo'jalar –Oqxo'jalar va Qoraxo'jalarga bo'lingan. Qoraxo'jlardan bo'lmish Offoqxo'ja Sin hukumatini tan olgan. Maxdumi A'zamning o'g'li Muhammadamin Oqxo'jalarga mansub bo'lib, Sin hukumatini tan olmagan. Uning avlodlari Xitoy sharqiy Turkistoni bostirib kirganda G'arbiy Turkiston , yani Qo'qon xonligiga kirib qoladi

Ma'lumki, xo'jagan jamoasi Maxdumi A'zam Ahmad ibn Jaloliddin xo'jagan Kasoniy avlodlaridan bo'lib ularning hukmronligi XVII asrda sharqiy Turkistonga ham tarqalgan edi.

¹¹ Mirzo Olim. Maxdum Hoji. Tarixi Turkiston. T., "Yangi asr avlodi", 2008. 6-bet.

Shohruhbiy ham xo`jalar bilan ittifoq tuzib, hukmronligini mustahkamlash uchun chodak xo`jalaridan birining qiziga uylanadi. 1709-yili urug` zodagonlari hamda xo`jalari roziligi bilan Shohruhbiy xonlik taxtiga ko`tariladi. Shohruhbiy davrida O`sh, O`zgan, Xo`jand hali mustaqil bo`lib Qo`qon davlatining shimoliy chegarasi Namanganning shohidonigacha cho`ziladi.¹²

Shohruhbiy 1721-yili vafot etdi. (Eslatma o`rinda: undan uchta o`g`il-Abdurahimbiy, Abdulkarimbiy va Shodibiy qoldi. ) Shohruhbiy vafotidan keyin uning katta o`g`li Abdurahimbiy taxtga o`tiradi. Uning hukmdorlik davrida dastlab Andijon va Xo`jand, keyinchalik Samarqand va Kattaqo`rg`on zabt etildi. So`ngra Shahrisabzga ham taxdid bo`ldi. Shahrisabz hokimi Abdurahimbiy bilan bitim tuzib unga Oychuchuk ismli qizini nikohlab berdi. Xo`jandga qaytgan Abdurahimbiy qattiq betob bo`lib 33 yoshida vafot etadi. Undan o`g`li Erdonbek va uch qiz qoldi. Ammo taxtga uning ukasi Abdulkarimbiy o`tirdi.¹³

Muhammad Abdulkarimbiy hijriy 1115, milodiy 1703 yilda tavallud topgan. U xon bo`lishidan oldin valiahd sifatida Namanganda hokim edi. Abdulkarimbiy asosiy e`tiborini davlatni mudofaa qilish ishlariga qaratadi. Uning zamonida Qo`qon shahri atrofi qo`rg`on bilan o`raladi, Isfara, Qatag`on, Marg`ilon, Haydarbek darvozalari quriladi. 1741-1745 yillarda Farg`ona jung`orlar hujumiga duch keladi.

Abdulkarimbiy qipchoq –qirg`izlar hamda O`ratepa hokimi Fozilbiy yuz yordamida ular bilan urushlar olib boradi. Shu vaqtda Abdulkarimbiy ham To`raqo`rg`on va Samarqandga Abulfayzxon iltimosiga binoan yurishlar qiladi. 1745 yili Miyonholda xitoy qipchoqlar Ibodullohbiy rahbarligida bosh ko`taradi. XIX asrning boshlarida Xitoy hukumati tazyiqi ostida sharqiy Turkistondan Farg`ona vodiysiga qalmoqlar, uyg`urlar, qirg`izlar, qoraqalpoq va qozoq qipchoqlari ko`chib kelishadi.

¹² Mirzo Olim, Maxdum Xoji. Tarixi Turkiston. T. "Yangi asr avlodi", 2008. 6-b.

¹³ G. Xolliyev, X.G`ulomov. O`zbekiston tarixi. T., "Universitet", 1997, 25-bet.

Farg`ona vodiysi XVIII asrning o`rtasida ko`plab xalq va jamoalar uchun Vatan bo`ladi.

Abdulkarimbiy 40 yoshda vafot etdi. Taxtga uning o`g`li o`tirdi. Ammo olti oydan keyin u taxtdan tushirilib, Marg`ilonga hokim qilib yuboriladi. Taxtga esa Erdona o`tqaziladi. U ham tez orada taxtdan ag`dariladi, uning o`rnini Bobobek egallaydi.

U bir yil hokimlik qiladi, Beshariqda o`ldiriladi va taxtga yana Erdona o`tkaziladi. Erdona 14 yil (ayrim manbalarda 12 yil) hokimlik qilib vafot etdi.

Shu o`rinda bir narsani takidlash joizki, Qo`qon xonligida yuqori hukmron tabaqaning ijtimoiy va etnik jihatdan xilma-xil bo`lishligi turli guruhlar o`rtasida muttasil davom etadigan hokimiyat talash kurashining asosiy sababidir. Xonlikda hukmronlik qilgan xonlardan ko`pi saroy to`ntarilishi oqibatida o`ldirilganlar o`nlab shahzodalar amaldor va sarkardalar saroy to`ntarishining qurboni bo`lib qatl etilganlar. Bunday qarama –qarshi turishliklar va o`zaro kurashlar Qo`qon xonligini oxir oqibatda inqirozga uchrab chor Rossiyani mustamlakasiga aylanishiga sabab bo`lgan bosh omillardandir.<sup>14</sup> Bu haqda B.M.I. ning keyingi boblarida yanada bastafsilroq ma`lumot berishga harakat qilamiz.

Yuqorida takidlab o`tganimizdek, Shohruhbiyning ikkinchi o`g`li Abdulkarimbiy markaziy davlatni mustahkamlash va kuchaytirish maqsadida mahaliy hukmdorlar o`zboshimchaligiga chek qo`yishga qaratilgan siyosat olib boradi. Shundan keyin to 1770 yilga qadar navbat bilan Abdurahmon Erdonaxon, Bobobek va Sulaymonbek Qo`qon xonligi taxtini boshqaradilar. Faqat Norbo`tabiy (\*1762-1698) yurgizgan qattiqqo`l siyosat tufayli ma`lum darajada bek va biylarning o`zboshimchaligiga chek qo`yiladi. Chust, Namangan va Xo`jand beklari qarshiligi qattiqqo`llik bilan bostiriladi.

Norbo`tabek davrida ko`pgina tarixchilar o`zlarining qo`lyozma asarlarida xalq farovon yashaganligi, narx-navo arzon bo`lganligini takidlaydilar. Biroq No`rtabiy vafot etgach zodogonlarning hokimiyat va davlat

¹⁴ R.Shamsuddinov, Sh Karimov, O`. Ubaydullayev. Vatan tarixi. T., “Sharq”, 2010, 100-b.

talash kurashlari yangi kuch bilan avj oladi. Qo`qon taxtini egallagan uning o`g`li Olimxon (1798-1810) O`zboshimcha beklarga nisbatan qattiqqo`l siyosat yurgizish va ularning qarshiligi kuch bilan bostirishga majbur bo`ladi.

Olimxon Qo`qon xonlari orasida birinchi bo`lib xonlikning unvonini qabul qiladi. Undan boshlab taxt egalariga odatdagidek “biy” emas, balki “xon” unvoni beriladigan bo`ladi. U harbiy islohatlar o`tkazdi va o`z davlatining qudratini oshiradi. Norbo`tabiy va Olimxon davrida (1798-1810 milodiy yillar) Qo`qon xonligining birlashish jarayoni oxiriga yetadi. Olimxon davrida Toshkent va Chimkent xonlik hududiga qo`shiladi.

Uning davrida xonlikning xo`jalik va madaniy hayoti rivojlana boshladi va Qo`qon, Farg`onaning madaniy va iqtisodiy markaziga aylanadi.<sup>15</sup> XIX asr boshlarida Qo`qon xonligi qo`shni davlatlar bilan aloqalar o`rnatib, ularga o`z elchilarini ham yuboradi. Qo`qonning Xiva, Sharqiy Turkiston Buxoroga yuborgan elchilari haqida ma`lumotlar bor.

1805-yili yetti yillik harakatlardan so`ng Olimxon Xo`jandni , 1806-yili esa O`ratepani zabt qilib, itoatiga kirgazdi. Lekin ko`p o`tmay O`ratepa mustaqillikni qo`lga kiritib, Maxmudxo`ja hokim Olim Buxoro qo`shinidan mag`lub bo`lib, siyosatini o`zgartiradi. Endi u Toshkentga yurish qilishga qaror qilib 1809-yili bu viloyatni ishg`ol etadi.

Bu yerda turib Olimxon qishning o`rtalarida qo`shinini Bayram va Chimkentga chekingan toshkentliklar qo`shiniga qarshi yubordi. Ob-havoning qiyinchiliklari qishning sovuq kelgani hamda Olimxon qahr-u g`azabidan to`ygan qo`shin boshliqlari va xon dushmanlari uning ukasi Umarxon tarafiga o`tadi. Umarxon ham bu kishilarni qo`llab turadi, e`tiroz bildirmaydi Umarxon qo`zg`alon ko`targan qo`shin bilan Qo`qonga qaytadi va xonlik taxtiga ko`tariladi. Olimxon Toshkentda qolgan yaqinlari bilan Qo`qonga qaytayotganda Umarxon va Toshkent zodagonlari odamlari tomonidan Saroy degan mavzyeda otib o`ldiriladi.

¹⁵ Бичурин Н Я Собрани сведени по исторической географии Восточной и Срединной Азии Чебоксари 1960 стр 178

1.2. Qo`qon xonligining ijtimoiy hayoti

Amir Temur va uning o`g`li Mironshohdan boshlangan sulola, Qo`qon xoni Xudoyorxongacha davom etib kelgan. Adabiyotshunos, professor Sharif Yusupov o`z maqolalarida shunday takidni ilgari suradi:

Qo`qon xonligining so`ngi hukmdori Sayid Muhammad Xudoyorxon Sohibqiron Amir Temurning Yigirma uchinchi avlodi xonning ikkinchi o`g`li Sayid Muhammad Aminbek yigirma to`rtinchi hamda Muhammad Aminbekning o`g`li Sayid Islombek Sohibqironning yigirma beshinchi avlodi bo`lib chiqadi¹⁶

Temurshunos, Bobirshunos fransuz olimi O`zbekistonning xalqlar do`stligi ordeni sohibi Lyusen Kern ham o`zining “Shahzoda Islombek” maqolasida Qo`qon xonlari temuriy Mironshohga borib taqaladi, degan g`oyani ilgari suradi.

Qo`qon xonligida tojiklar va qirg`izlar ham katta mavqega ega edilar. Xon qo`shinlarida ular katta kuch bo`lganlar. 92 o`zbek qabilalaridan biri deb o`zlarini hisoblovchi qipchoqlarning o`rni ham Qo`qon xonligida ancha katta bo`lgan ular xonlikning Shahrixon Baliqchi hududlari Qoradaryo bilan Norin daryosi oralig`idagi yerlarda yashaganlar. Qirg`izlar va asosan Farg`ona atrofidagi tog`larda va Ketmontepa Oloy singari tog` havzalarida ko`chib yurub chorvachilik bilan shug`ullanganlar.

Xiva xonligi va Buxoro amirligidagi singari Qo`qon xonligida ham davlatni boshqarishda ruhoniylarning o`rni va ta`siri katta bo`lgan¹⁷. Jumladan, ruhoniy Hazrati Sohib Naqshbandiylar jamoasining xalifasi sifatida 1844-1869 yillar mobaynida amalda davlat ahamiyatiga ega bo`lgan ayrim masalalarni hal qilishda asosiy ro`l o`ynagan. Hatto Xudoyorxonning o`zi ham u vafot etgach dafn marosimida oldingi safda borgan.

Ma`muriy boshqaruvi.

¹⁶ Sh. Yusupov. Buni umr derlar ... Jamiyat va boshqaruv. 2002 y. 1-son, 18-25-bet.

¹⁷ R.Shamsiddinov, Sh Karimov. O`. Ubaydullayev. Vatan tarixi. T., “Sharq”, 2010, 99-bet.

Feodal tuzum asosida tashkil topgan o'zbek xonliklarining ma'muriy tuzilishi shu jumladan Qo`qon xonligida hamhukron doiralarning manfaatini himoya qilishga asoslangan edi.

Qo`qon xonligi Marg`ilon, O`sh, Andijon, Namangan Shahrixon Baliqchi, Navqat, Chust, Buloqboshi, Aravon, Koson, Mahram, Sux, Bobodaxon, Xo`jand, Toshkent, Turkiston va O`ratepa beklklariga bo`lingan.¹⁸ Beklar hokim yoki parvonachi deb nomlangan Qo`qon xonligida Beklarbegi hisoblangan -Toshkent begi parvonachi yoki qushbegi deb atalgan. Toshkent bekligi o`z qo`li ostidagi yerlarga to`la hokim bo`lib, u chet davlatlar bilan o`zaro iqtisodiy va diplomatik munosabatlar bog`lash huquqiga ega edi.

O`rta Osiyoning boshqa xonliklari kabi Qo`qon xonligida ham xonning huquqi mutlaqo chegaralanmagan. Xonlikda quyidagi mansablar mavjud bo`lgan: mingboshi, otaliq, shayxulislom, qozikalaon qushbegi, mextar parvonachi, naqib, dodxoh, eshik og`asi, inoq, shig`avul, to`qsoba mirokur qorovulbegi va boshqalar. Xo`jakalon, naqib, mirasad, sadr, sudur, uraq mansablari faqat Muhammad payg`ambar va to`rtta xalifalar avlodlariga mansub shaxslarga taqdim qilingan¹⁹

Shayxulislom mavlavi, qoziqalon, qoziul, quzzot, qozi askar, qozi mutlaq, qozi rais, mufti a`lam, mudarris imomlar shunday shaxslar bo`lishi kerak ediki, ular musulmon maktablarida ta`lim olgan bo`lishlari shart edi. Shayxulislom unvonini olish uchun bilimdon, o`qimishli bo`lish haqidagi hujjatdan tashqari tayinli nasl-nasab ham talab qilingan. U xo`jalar avlodidan bo`lishi lozim edi. Shahardagi tungi tartibni qo`rboshi boshchiligidagi ma`lum miqdordagi soqchi (mirshab)lar nazorat qilishganlar.

Shuningdek, muxtasiblar lavozimiga odatda axloqiy sifatlari bilan ajralib turgan va shariat qonunlarini yaxshi bilgan shaxslar tayinlangan, ular rais-a`lam deb ham atalgan.

¹⁸ G.Xolliyev. X. G`ulomov. O`zbekiston tarixi. T., Universitet. 1997, 52 bet.

¹⁹ H.Bobobekov. Qo`qon xonligining qisqacha tarixi. "Turon tarixi jurnali to`plam", N-2. T., "Fan", 2008, 20bet

Xonning daromadini maxsus amaldorlar boshqarishgan: mirzai daftar xon xazinasining ahvoli haqida maxsus daftarga qayd qilib borgan. Sarkar va inoq xonlik xazinasiga qabul qilinadigan maxsulotlarni saqlovchi hisoblangan. Pullarning hammasini mehtar yoki xonning g`aznachisi (kassiri) qabul qilgan, shuningdek, u xonning barcha qimmatbaho buyumlarini boshqaruvchisi ham bo`lib hisoblangan.

Odatda, vaqtinchalik hukmronlik qiluvchi guruhning eng nufuzli shaxslari xonlikdagi yaxshi lavozimlarni egallab olganlar. Barcha masalalarni hal qilish uchun xonga qarshli doimiy kengash tashkil qilingan edi. Unga xonning o`zidan tashqari otaliq, mingboshi, parvonachi, sarkar, dasturxonchi, risolachi, g`aznachi, muxtar, noib, xudaychi, va xonning istagi bilan bazilar amalda esa mingboshining maslahatiga muvoffiq kiritiladi.

Xonlik hayotida ruhoniylar fuqarolar ishini hal qilishda qozilikka oid hamma ishlarni oshkor qilardilar. Qozilik ishlarini ma`lum tartibda ko`rish faqat shariat va odatlar asosida olib borilgan. Qo`qon xonligida mavjud bo`lgan harbiy unvonlar quyidagicha bo`lgan. Mingboshi –odatda, u vazirlik vazifasini birga olib borgan. Keyin pansadboshi, yuzboshi, ellikboshi, o`n boshi to`pchiboshi, zambarakchi va boshqalar. Bulardan tashqari boshqa harbiy mansablar ham bo`lgan. Qo`qonda yashagan sarboz va to`pchilar faqat alohida vazifadagi noib, dodxohning doimiy tasarufida bo`lganlar. Urush davrida noib, dodxoh o`z qismiga harakatdagi qo`shinning hamma sarbozlarini qabul qilgan. Unga vaqtinchalik boshchilik qilishni maxsus tayinlangan amiri lashkar (bosh qo`mandon) ga topshirdi. Har bir kishi harbiy xizmatga kirishda hukumatdan otva om abzali olgan, safarga chiqishdan oldin yuzboshi -2tilla, ellikboshi-1,5 tilla oddiy askar -1tilla olgan. Qo`shinlarni taminlash 1851-yilda pulli unvonlar va oziq ovqat naturasidan iborat edi. Bir yilda yuzboshi- 147 so`m kumush tanga, Mingboshi-98so`m, o`nboshi-65so`m, oddiylar 43 so`m olgan. 1860 yilda

qo`qonliklarda aslini olganda muntazam hatto bir ozgina bo`lsa ham oldindan tashkil etilgan qo`shin yo`q edi.²⁰

Xonlikda tinchlik xotirjamlikni saqlash va qal`a gornizoni uchun haq to`lanadigan ko`ngillilar xizmat qilardi. Urush vaqtida xizmatga qurol ko`tarib yurishga layoqatli bo`lgan barcha erkaklar chaqirilgan. Harbiy xizmatga ko`pincha kuz oylarida chaqirilgan. Quyi mansabdagi xizmatchilar hukumatidan bir yilda ikki qopdan arpa, oyiga bir tilladan pul olardilar. Bulardan tashqari ayni zamonda ularga bahorda 4tadan yozlik to`n, ko`ylak, etik, salla, do`ppi va belbog`, qishda esa issiq chopon, oshlangan po`stin, etik, issiq shapka va ot berilardi, qurollardan qilich, nayza, miltiq berilgan. Miltiq hammaga emas faqat otishni biladiganlarga tanlab berilgan, umuman qo`qonliklarning qurol aslahasi juda yomon bo`lgan.²¹

Shunday qilib, tashkil etilgan qo`shinning o`z boshliqlari bo`lgan: mingboshi asosiy harbiy boshliq, pansadboshi, yuzboshi yasavul, ularning bir qismi xo`jalik ishlari bilan ham shug`ullanganlar. Xon harbiy yurishlar vaqtida viloyat va qal`a hokimlariga shuningdek, xalqqa qo`shinlarni belgilangan joyga ma`lum kunda yig`ish haqida farmon berardi.

Ponsadlar o`zlariga yuzboshi yasavvul va boshqalarni yordamchi qilib olib, ko`ngilli qo`shin boshlig`i bo`lib, bu buyruqni bajarardilar. Shundan keyin xon o`zining soqchilari bilan safarga chiqardi. Yo`l boylab garnizon va qal`alarda qo`shin to`plab unda faqat zarur miqdordagi harbiylarnigina qoldirgan. Xonga ko`ngillilar ham qo`shilib borgan. Qal`alardan tashilgan har bir zambarakka 6tadan ot qo`yilgan, bundan tashqari yana zaxirada 25tadan (kerak vaqtda ishlatish uchun) otlar bo`lgan. Qurollar uchun zaryadlar va miltiq uchun o`qlar alohida maxsus sandiqlarda tashilgan.

Qo`qonliklar o`z qal`alarini himoya qilganlarida olovli sharlarni ham ishlatar edilar. Bunday qurolni tayorlash maxsus tayorlangan charmga porox o`ralib u yo`g`on sim yoki arg`amchi (arqon ) bilan qattiq bog`lanib, trubka

²⁰ H/Bobobekov. Qo`qon xonligining qisqacha tarixi. "Turon tarixi" jurnali. To`plam № 2, T., "Fan".2008, 21-bet.

²¹ H. Bobobekov. Qoqon xonligining qisqacha tarixi. "Turon tarixi" jurnali. To`plam. N-2 T., "Fan", 2008-yil, 22-bet.

tiqib, sharning ustini mum bilan surkashardi va uni yoqib dushman tomon uloqtirar edi.

Bazi ma'lumotlarga qarganda, xon XIX asrning 50-yillarida 20kun davomida 40 000ga yaqin kishilik qo'shinni to'plashga va ular bilan safar qilishga muvaffaq bo'lgan.

Beklar xon tomonidan belgilangan soliqlarni harbiy kuchlarni to'plab xonga topshirishga majbur edilar. Ammo ular boshqa ishlarni istaganicha qildirdilar. Hatto harbiy kuchlar va soliqlar yig'ish ishlarini ham o'z bilganicha bajaraverardi.

Turli soliqlardan to'plangan pulning tegishli qismini xonga yuborib, qolganini bekning o'zi xohlaganicha sarflay berar uni hech kim nazorat qilmas edi.

Oqsoqol, mingboshi, yuzboshi va ellikboshilar aholi o'rtasida bo'lgan obro'li kishilardan saylanar edi. Ular bu lavozimlarga masjid nomozlaridan so'ng aholi o'rtasida saylanardilar.

Beklarga qarshli shaharlarda rais, qo'rboshi mirshab, qozi mirza va mirzaboshilar qishloqlardan kelgan daromad hisobiga yashar edilar. Masalan, har ikki uch ponsodboshi (besh yuz boshi) ga ayrim qishloqlar tanho tariqasida berilib, shundan kelgan daromad ular o'rtasida taqsimlanardi. Masalan, to'qsaboshi va boshqa yuqori mansabdor harbiy boshliqlarning besh oltitasiga bir qishloq tanho qilib berilardi: ularning har biriga boshqa daromadlaridan tashqari O'rta hisobda 100, 80, 70 chorak (7 qadoqqa yani 2kg 800 gm ga teng bo'lgan og'irlik) to'g'ri kelardi.

Qorovulbegi, miroxur va boshqa amaldorlarning har 15-20tasiga bir qishloq tanho qilib berilardi. Ularning har biriga boshqa daromadlaridan tashqari 50-30 chorak bug'doy to'g'ri kelardi. Bundan tashqari xon xarbiy boshliqlarga har yili sarpo kiyg'izish baytlarda har bir ponsodga 1000(200 so'm) qolganlarining har biriga 500tangadan 80 tangagacha pul berilgan²². Urush

²² G.Xolliyev, X.G'ulomov. O'zbekiston tarixi. T., "Universitet". 1997, 53bet.

davrida yuzboshiga har oyda ikki tilla ellikboshiga bir yarim tilla oddiy navkarlarga esa bir tilladan aqcha berilar edi va h.k.

Qo`qonda ham boshqaruv tizimi ko`p jihatdan buxorodagi holatni esltsada ammo uning ham o`ziga xos tomonlari bo`lgan. Qushbegi, devonbegi, otaliq, parvonachi dodxoh kabi mansablarning mavqei bu yerda ham baland hisoblangan, holda harbiy lavozim egalarining ayniqsa mingboshining roli bazi zamonlarda nihoyatda yuqori bo`lganini bilamiz.<sup>23</sup>. Chunonchi, qushbegi, parvonachi lavozimlaridagi mingboshi harbiy unvoni berilishi fikrimiz dalili bo`la oladi. Bizga ma`lumki, Musulmonqul mingboshi hatto hokimiyatni qo`lga olib butun xonlik ishlarini yurgizgan.

Xonlikda yer munosabatlar suniy sug`orish yer muomalasi doimo o`tkir va dolzarb masalalardan biri bo`lib kelgan va hozirgi kunda ham u o`zining ushbu xususiyatini yo`qotgani yo`q.

XVIII asrning oxiri va XX asrning boshlarida Markaziy Osiyo xonliklaridagi yerlar uch qisimga bo`lingan:

Birinchisi- Davlat yerlari (amlok, amloki, podshohiy)

Ikkinchisi- shaxslarning xususiy(mulk) yerlari;

Uchinchisi- vaqf yerlari ;

O`lkadagi yer suvning asosiy xo`jayini bo`lgan xonlar eng katta yer maydonlariga ega edilar. Masalan, Buxoro xonligidagi barcha hosildor yerlarning uchdan ikki qism amirning yeri hisoblangan. XIX asr o`rtalarida Buxoro amirligida sug`oriladigan yerlarning jami 2mln 450 ming desyatina bo`lgan. Bu yerlarning katta qismi xonbeklar va ularning avlodlari qo`lida edi. Biz tadqiq qilayotgan Qo`qon xonligidagi asosiy yer maydonlari xon va uning avlodlari ixtiyorida edi. Bunday yerlar chek yerlar deb atalardi. Masalan, Andijon atrofida Olimbek cheki deb nomlangan yerlar 296 desyatina (bir desyatina -1,09ga teng) Sheralixon cheki 291 desyatina bo`lgan. Farg`ona vodiysida bunday chek yerlar ko`p bo`lgan.

²³ Azamat Ziyov. O`zbek davlatchiligi tarixi. T., Sharq, 2000, 297-bet.

XIX asr o`rtalarida chek yerlar yanada ko`paydi. Xususan Xudoyorxon zamonida xon va uning avlodlari qo`lida juda ko`p chek yerlar to`plangan. Xudoyorxon , Sultonmurodbek, Nasriddinbek, O`rmonbek va boshqalar nomidagi cheklar 1845-1875 yillarda ayniqsa kengaygan.

O`rganilayotgan davrda dehqonlar va mohir irrigatorlarning ulkan mehnati natijasida murakkab suv xo`jaligi barpo etildiki, unga yirik suv xo`jaligi manbalaridan suv olish ishlarini tashkil etish turli xilo suv olg`ich inshootlarni qurish kanallarni tozalash, suvni undan foydalanuvchilarga taqsimlash kirardi²⁴.

Umuman sug`orish tarmog`i ulkan sistema bo`lib, uning shahobchalar suvni juda katta maydon uzra tarqatardi. Ko`pdan ko`p ariqlar ayrim tumanlarni sug`orar ularning umumiy uzunligi o`nlab kilometrni tashkil etardi. Masalan, XIX asrning birinchi choragidan boshlab Farg`ona vodiysi daryolaridan suv oladigan ko`plab ariqlar va kanallar qazildi. Va shular suvi bilan 1903 yilda Norin daryosidan Yangiariq, Chagaraxon, Uychi, Kistrabot, Chortoq, Mutagan, Kosatepa, Namangan, Xonobod atrof yerlari suv bilan ta`minlandi. Hammasi bo`lib 96 ariq chiqarildi. 1819 yilda Umarxon farmoni bilan yangi ariqlar qazildi. Eskilari kengaytirilib, ularning uzunligi 100chaqirim (chaqirim-taxminan 1,5 km ga teng) yetkazildi. Natijada Namangan atrofidagi ko`plab yerlar sug`orildi. 1820 yilda Farg`ona vodiysida sekundiga 7kub sorjin suv oqib o`tadigan Shahrixon soy kanali qazildi. Shu kanal suvidan hozirgi kunda ham Shahrixon, Bo`z tumani qishloqlari suv ichib, dehqonchilik qilmoqdalar. Madalixon zamonida Xonariq chiqarilib Toshkent atrofidagi yerlarni bir qismi o`zlashtirildi. Chirchiq daryosidan Bo`zsuv arig`i qazildi. Umuman chirchiqdan 45ta kanal chiqarildi. Bular orasida eng kattasi Zoxariq bo`lib, uzunligi 70 chaqirim edi. Andijonsoy, Yangiariq kanallari ham qazildiki, ular Norin va Qorasuv daryolari qo`shilib hosil bo`lgan Sirdaryo suvini dalalarga oqizish imkonini berdi. Bu vodiy xo`jaligi samaradorligini ortirishga asos bo`ldi. Xullas, XVIII asr oxiri va XIX asrning birinchi yarmida O`zbek xonliklarida sun`iy sug`orish sohasida anchagina ishlar qilingan edi. Lekin kanal va

²⁴ G.Xolliyev, X.G`ulomov. O`zbekiston tarixi T. "Universitet" 1997, 44-bet.

ariqlarning asosiy qismi yuqori tabaqalar qo`lida bo`lib, mehnatkash aholiga suv yetishmas edi. Markaziy Osiyoda sun`iy sug`orish tarixida buloq suvlaridan foydalanish usuli ham o`ziga xos mohiyat kasb etgan. Bu orqali tog`li tumanlarda hamda buloqlar bo`lgan yerlarda dehqonchilikni har tomonlama rivojlantirish uchun imkoniyat yaratilgan. Ariq oqsoqollari va mirovlar yuqorida ko`rsatilgan kanal, ariq, korix va buloq suvlarini aholi o`rtasida taqsim qilish va yangi irrigatsiya inshootlarni qazish ishlarini tozalash va buzilgan joylarni tuzatish ishlariga boshchilik qilib kelganlar. Umuman gidrotexniklarga (ariq oqsoqoli mirob, minoboshi ) davlat tomonidan hecha qanday haq to`lanmas edi. Irrigatsiya xodimlariga g`alla bilan haq to`lanar edi. Bunday haq to`lash kapson deb yuritilardi.

Toshkent bekligi miroblarioni yilda bir mukofotlab turgan. Masalan, bosh ariqoqsoqoliga uchta to`n, bitta bezatilgan ot va ikki yuz pud qishloq xo`jalik maxsulotlari berilgan. Toshkentdagi to`rtta bosh ariq oqsoqoli qarmog`ida beshtadan kichik ariq oqsoqoli bo`lgan. Toshkent shahar begi har bir ariq oqsoqoliga yilda bitta to`n, bitta ot va 1280 pud g`alla berar edi. Ariq oqsoqollarining hammasi barcha soliqlardan ozod qilinar edi.²⁵

Umuman, Movarounnahr zaminida bunyod etilgan sug`orish vositalari hatto yevropalik zamondoshlarni ham hayratga solgan. Rus geografi, knyazi V. Masalskiy ayrim kanallarni ko`rib, bunday deb yozgan edi. “obi hayotni ko`pgina o`nlab chaqirimlarga eltayotgan bu qudratli oqimlarni ko`rganda texnik bilimlari juda nochor bo`la turib, Turkiston quyoshining jazira nurlari ostida benihoya mehnat evaziga butun mamlakatni sug`orish shahobchalari bilan to`ldirgan xalqqa beixtiyor mehning uyg`onadi. kishi”²⁶.

Qo`qon va Toshkent munosabatlasri.

Toshkent Qo`qon xonligi tarkibida bo`lgan. XVIIIasrning uchinchi choragida Toshkentda mustaqil davlat yuzaga kelib, u bilan Qo`qon o`rtasida to`qnashuvlar ro`y beradi. Qo`qon xonligi haqida ma`lumotlar berar ekanmiz.

²⁵ G.Xolliyev, X.G`ulomov. O`zbekiston tarixi. T., “Universtitet”, 1997, 39-bet.

²⁶ В Масалский Россия. Полное географическое описание нашего отечества. Спб. 1913 423 стр

Albatta, Toshkent bekligiga to'xtalmay ilojimiz yo'q. XVIII asrning 80 yillarida bu shaharda hokimiyat uchun kurashlarning fojiali oqibatlari ko'zga tashlanadi.

XVIII asrning ikkinchi yarmida Toshkent to'rt dahaga: Shayxontohur, Beshyog'och, Ko'kcha va Sebzorga bo'lingan, har bir daha o'zicha mustaqil davlat edi. 1784 yilda shahar aholisining yordamiga tayanib Yunusxo'ja hokimiyatni qo'lga oladi va Toshkentni mustaqil davlat deb e'lon qiladi. Uning davrida shahar mustahkam mudofaa devorlari bilan o'rab chiqiladi. 1800 yilgi ma'lumotlarga qaraganda Toshkent yirik shahar bo'lgan, devor quyi qismining qalinligi 1,8 metr, ustki qismi 0,9 metr atrofida bo'lib, aylanma uzunligi 18 chaqirimdan ortiq, shahar devorining balandligi esa 7,9m ga teng bo'lgan.²⁷

Shaharning 12ta oltin kaliti bo'lib hozir milliy bankda saqlanmoqda. Shaharda o'sha paytda 10mingta xonadon 80ming aholi yashagan.

Yunusxo'ja tarixiy yozma manbalarga qaraganda olti ming kishilik qo'shin turgan. Uning askarlari asosan piltali miltiq, qilich nayza, qalqon va to'plar bilan qurollangan edilar. Qo'shin tarkibi asosan turli shaharlardan kelgan musofirlar va askarlardan iborat bo'lib, "qoraqozon" deb atalgan.

Rus tog' muhandislari (aslida Rossiyaning O'rta Osiyodagi ayg'oqchilari) A.S. Beznosikov va T.S. Burnashevlarning qaydnomalarida quyidagilarni o'qiymiz. "Toshkent hukmdori (Yunusxo'ja) o'z fuqarolari ustidan cheksiz hokimiyatga ega. Ammo u o'z atrofidagi eng yaxshi amaldorlar bilan maslahatlashgan holda hokimiyatni boshqaradi. Bu kengashda Yunusxo'ja eng sodiq va ishonchli xo'jalar qatnashadi"

Hukumat amaldorlariga maosh berilmagan. Bosh xo'ja Yunusxo'jadan keyingi ikkinchi shaxs hisoblangan. Ular faoliyati Yunusxo'ja nazorati ostida bo'lgan. Toshkent hokimligining tartibiga ko'ra har bir jondan bir oyda daromadiga qarab 5tangadan 10tangagacha yerdan olinadigan hosilning 40dan bir qismi undirib olingan. Qoraxonlar har qanday soliqlardan ozod qilinganlar.

Yunusxo'ja davrida Toshkent, Qo'qon, Buxoro, Xo'jand, Chimkent, Turkiston, Samarqand, Andijon, va boshqa Turonzamin shaharlari Hindiston,

²⁷ R.Ramsuddinov, Sh. Karimov, O'. Ubaydullayev. Vatan tarixi. T., "Sharq", 2010, 101-bet.

Xitoy, Qashqar, Tibet, Rossiya va boshqa bir qator xorijiy mamlakatlar bilan tijorat-savdo aloqalari o'rnatilgan.

Yunusxo'ja Toshkent davlati hududlarini ancha kengaytiradi. U 1799 yilda esa Turkistonni bosib oladi. 1800 yilda Yunusxo'ja Chirchiq daryosining chap qirg'og'ini va Qurama mavzyeni egallaydi.

II-bob. XVIII-XIX asrlarda Qo`qon xonligining madaniy hayoti.

2.1. Qo`qon xonligida adabiyot va san`atning rivojlanishi.

XVI –XIX asrning birinchi yarmida O`rta Osiyo xonliklarining xalq talimi, fan va ma`daniyati haqida gap borganda shuni alohida takidlash kerakki, ijtimoiy siyosiy hayotning hamma sohalarida birinchi navbatda madaniyat va mafkurada islom dini g`oyasi markaziy o`rinni egallar edi. O`z boshlang`ich nuqtasini X-XII asrlardan e`tiboran olgan sofiylik tariqati naqshbandlik g`oyasi bilan uyg`unlik negizida XV asrga kelib eng yuksak cho`qqiga ko`tariladi, to XX asrdagi siyosiy to`lqin va lahzalar davriga qadar jamiyat taraqqiyotining borishida jiddiy ro`l o`ynaydi.²⁸ XVI –XIX asrning birinchi yarmida O`rta Osiyodagi har uchala amirlik va xonliklarning madaniy taraqqiyotiga xos bo`lgan umumiy o`xshashliklar diqqatga loyiqdir. Bu o`xshashliklarning sabablari ham bir-biriga juda o`xshashdirlar.

Birinchidan, O`rta Osiyo hududi davlatlari XV asrlarda madaniy taraqqiyotda dunyoda eng yetakchi o`rinlarda turgan bo`lsa, XVI-XVII asrlardan boshlab bu hududda tushkunlik boshlanadi. Ikkinchidan, har uchala davlat birliklari o`zlari alohida mustaqil faoliyat ko`rsatsalarda davlat idora ishlari o`zbek va fors tilida olib borilardi. Buxoroda fors, Qo`qonda fors-o`zbek, Xivada o`zbek tili rasman davlat tili hisoblanardi.

Uchinchidan, an`anaga ko`ra fanda, adabiyot va maktabda arab va fors tilining obro`si saqlanib qolgandi.

²⁸ R.Shamsuddinov Sh Karimov O` Ubaydullayev Vatan tarixi T. Sharq 2010 119-bet

Buxoro amirligi Qo`qon va Xiva xonliklarida xalq ta`limining tuzilishi va faoliyati deyarli bir xil bo`lgan. Ularda madrasalar, maktablar va qo`riqxonalar mavjud edi.

Madrasalar musulmonlar uchun oliy o`quv yurtlari hisoblangan. Maktablar masjidlar qoshida va xususiy uylarda tashkil etilgan. Xonlar o`rtasida esa Xonzoda va zodagonlarning bolalarini o`qitish uchun maxsus maktab bor edi.

Odatda maktablarda asosan o`qish va yozish arifmetika va adabiyot o`qitilar edi. Qo`riqxonalarda esa asosan ko`zi ojizlar o`qib, hunar, doston va she`rlar u`z azallar yodlash edilar.

Maktablar qizlar uchun alohida, o`g`il bolalar uchun alohida bo`lgan. Masalan, mashhur shoira Dilshoda Qo`qonda maktab ochgan. U o`zining maktabdorlik faoliyati haqida bunday deb yozgan edi: “Mening suhbatdoshlarim va dugonalarim aqlli qizlar va iste`dodli shoiralar edi. Ellik bir yil davomida men maktabdorlik qildim va yilda o`rtacha 20tadan 30tagacha o`quvchilarim bo`lib, sakkiz yuz to`qsonta qizlarning savodini chiqardim, bulardan deyarli chorak qismi, she`riyatga qobiliyatli bo`lib, shoira va o`z davrining aqilli va dono odamlari edi.”²⁹

Qo`qon shahrida boshqa shaharlarga nisbatan ko`proq maktablar bo`lgan. Shuning uchun savodlilar ko`p bo`lib, o`qish va yozishga usta bo`lganlar. 1841-yilgi ma`lumotlarga qaraganda, Qo`qon shahridagi xonning asosiy madrasasida 1000ta mulla o`qigan. Bu madrasani ikkita bosh muzarrix boshqargan: Eshon Mavloniy va Maxzumi Buxoriy. bu hurmatli insonlar bo`lib katta ilmga ega edilar.

Har bir maktabdor domlaning ham o`zicha o`qitish usullar bo`lgan. Ularning bazilari bolalarning yosh xususiyatlariga alohida e`tibor bergan holda kichik yoshdagi o`quvchilarga husnixat va og`zaki hisobni o`rgatsa, katta

²⁹ Muxtorov.A. Дилшод и его место в истории общественной мысли таджикского народа в XIX и XX в.в. 301 стр

yoshdagi o`quvchilarga esa Quronning oyat va suralaridan tashqari fors, arab, turkiy tillarda yozilgan o`nlab hayotiy kitoblarni ham o`qishni o`rgatar edi.

O`zbekiston hududidagi xonliklar va amirliklar davrida fan, adabiyot, san`at birmuncha rivojlangan. Ko`proq xon saroylari doirasida ham diniy, ham dunyoviy adabiy asarlar yozilgan.<sup>30</sup> Tarixshunoslik ham ancha rivojlangan. Garchi bu davrdagi tarixchi olimlar yozgan tarix kitoblar ko`pincha o`sha xonlik va amirliklardagi siyosiy voqealar salnomasiga aylanib qolgan bo`lsa ham biz uchun bugungu kunda o`sha davrni yoritishda muhim ahamiyatga molikdir.

Adabiyot sohasida juda ko`plab shoir va shoirlar ijod etadilar. Qo`qon xoni Umarxonning o`zi “Amiriy” taxallusi bilan o`zbek tilida go`zal g`azallar yozgan.

Ko`rilayotgan davrda fan va madaniyat har xolda bit yerda to`xtab qolmagan. Yuqorida bizlar takidlagan qurilishlar ayniqsa, madrasalar bunyodi shunga ishoradir. Sovet davri tarixshunosligi iloji boricha XVIII-XIX asrlarda o`zbek xalqining bu sohalaridagi tarixini bo`yab ko`rsatishga intilib, o`lkani madaniy qoloqlikda ayblab, bu bilan Rossiya bosqinining “O`zbekiston uchun progressiv ahamiyatini “ isbotlashga atayin harakat qilgan.³¹

O`tgan sulolalar kabi mang`itlar, qo`ng`irotlar minglardan chiqqan namoyondalar ham o`z davri va doiralarining o`qimishli shaxslari bo`lganlar. Masalann Qo`qon xoni Umarning “Amiriy”, Malika Mohlaroyning “Nodira” , “Komila”, “Maknuna”, Xiva xoni Muxammad Raximxon II “Feruz” , Uning akasi Otajon To`ra Murod “Murodiy” taxallusida she`r bitganlarini, Abdulg`oziy Bahodirxonning “Shajarai Turk “, “Shajarai Tarokima “ kabi o`zbek tilida yozgan asarlarini shu o`rinda eslash joiz.

Fazliy, Mushrif, G`oziy, Afsus, Sodiq, Hijolat, Hoziq, Xotif, Maxmur, Gulxaniy kabi yetuk qalam sohiblari Farg`ona vodiysida yashab ijod qilganlar.

Shuningdek, “Afzal at- Tavorix “, “ Tarixi Umarxon”, “Risolai Askariya”, “ Muntaxab at-tavorix”, “Tarixi Shohruhiy”, “ Tarixi Jahonamoy”, “Xulosat al

³⁰ Sh. Karimov O`zbekiston tarixi va madaniyati T. “O`qituvchi” 1992, 119-bet.

³¹ Azamat Ziyov. O`zbek davlatchiligi tarixi. T., “Sharq”, 2000, 800-b

axbor”, “ Tasnifi g`arib”, “ Tarixi jadidai Tashkand” kabi boshqa ko`plab tarixiy asarlar ham huddi shu davrda Qo`qon xonligi doirasida yozilgan.

Nodira o`zbek shoirasining taxallusidir, u tengi yo`q. Yakkayu yagona ma`nosini anglatadi. Nodira faqat o`zbek tilidagina emas balki fors, tojik tilida ham “Maknuna”, “Komila” taxallusida she`rlar g`azallar bitgan.

Nodiraning eng oliyjanob va e`tiborga loyiq tadbirlaridan shu bo`ldiki, u o`z atrofiga zamonasining qobilyatli va ijod egalari bo`lmish shoirlarni to`pladi va ularga homiylik qildi. Uvaysiy, Mahzuna, Mushtariy va boshqalar uning eng yaqin maslakdosh va maslahatgo`ylari edilar.³²

Nodira o`zi yashagan feodal tuzumni lanatlab ijod etar ekan, bu jamiyatdagi o`zbek xotin qizlarining og`ir qismatli hayotiga dardkash bir siymo sifatida faryod qiladi. U hatto saroyda yashasa ham o`zini baxtiyor hisoblamadi. Nodirabegim o`zining bir g`azalida “Tushdi ohimdin bu oqshom charx maydoniga dud... “ deb kuylar ekan, bu oh shoiraninggina dardu alami bo`lmay feodal zulimdan ezilgan xalq ommasining barcha xotin qizlarining ohi edi³³

Nodira insoniylikni ezgulikni ulug`ladi, hayotbaxsh orzu-umidlarini tarannum etadi.

1842 yilda Nodira hayotida katta fojia yuz beradi. Buxoro amiri Nasrulloxon Qo`qonni bosib oladi va Nodirabegimni shariatni buzganlikda ayblab uni qatl qildiradi. Nodira feodal jaholatning qurboni bo`ladi.

Ha, shoira haq bo`lib chiqdi. Bizning zamonda bir qancha maktab va ko`chalar uning nomi bilan atalgan. Nodira haqida Turob To`la “ Quvvai qahqaha “ pyesasini, K. Yormatov “Odamlar orasida” (Nodirabegim) filmini yaratdi.

Bu davrda ijod etgan Fazliy Namanganiy Mushrif, Mushfiqiy kabi shoirlar o`z zamonasining zabardast siymolari edilar. Masalan: Mushfiqiy Buxoro amiri Abdulloxon saroyida “ Malik ush-shuaro” unvoniga ega bo`lgan bo`lsa Fazliy

³² Sh. Karimov O`zbekiston tarixi va madaniyati T. “O`qituvchi” 1992, 119-b

³³ Ўша жойда.

Namanganiy Qo`qon shoirlariga boshchilik qilgan. Umarxonning topshirig`i bilan Fazli va Mushrif tomonidan “ Majmuat-ush shuaro” to`plami tuzildi.

XIX asrdagi o`zbek va tojik adabiyoti tarixida salmoqli o`ringa ega bo`lgan, ammo ijodi yetarli darajada o`rganilmagan shoir va tabib Hoziqdir. O`zbekiston sharqshunoslik institutida Muhammad Husayn bilg`oriy tomonidan tuzilgan “Marsad ut-tasonif” nomli (to`plamlarni o`rganish joyi) antalogiyada O`rta Osiyo va Eron shoirlaridan katta bir guruhining shu jumladan Hoziqning ham o`zbek va tojik tillarida yozilgan 354 misra she`ri bor.<sup>34</sup> Bundan tashqari Hoziqning bir necha g`azal va qasidaları 1820- 21 yillarda Namanganlik shoir Fazliy tomonidan Qo`qonda tuzilgan “ Majmuat ush – shuaro” ( shoirlar anjumani ) qo`lyozma asarida ham uchraydi. Uning o`zbek va tojik tillarida yozilgan shiorlaridan tuzilgan to`plam Rossiya FA ning Sankt Peturburgdagi sharqshunoslik institutining bo`limida № 470-C sonli hujjatda saqlanadi.³⁵

O`zbek milliy madaniyati markazlaridan biri shubhasiz bu Qo`qon shahri edi. Bu yerda XVIII-XIX asrning birinchi yarmida ilm marifat olamida nomi dunyoga mashhur bo`lgan ulug` va mutafakir shoirlar yetishib chiqadi. Xususan, XIX asrda Qo`qon xoni Umarxon (1810-1822) va uning umr yo`ldoshi shoira Nodiraning say harakati tufayli Qo`qon shahri ilm marifat adabiy muhiti paydo bo`ladi.

XVIIasrning ikkinchi yarmi va XVIIIasr boshlarida yashab ijod etgan iste`dodli va isyonkor shoir Boborahim Mashrab ( 1640-1711) dir. U Namanganda tug`ilgan 7yoshidan mashhur Shayh Mullo Bozor Oxund qo`lida ta`lim olib xat savodini chiqargan. 15 yoshidan Qashqarda mashhur Shayx Ofuq Xo`ja qo`lida 7yil tasavvuf ilmini egallaydi, so`ng kanizaklardan birini sevib qolgani uchun Ofoqxo`ja dargohidan quviladi. Erkentga u yerdan Xo`tanga, so`ng guljaga borgan. Mashrab g`uljadan Qashqarga qaytadi. So`ng Ofoqxo`ja topshirig`idan Toshkentga va yana Ofoqxo`ja huzuriga, undan keyin o`z ona yurti Namanganga keladi. Xullas 18 yil davomida yuqorida nomlari tilga olingan

³⁴ Sh. Karimov. O`. Ubaydullayev. Vatan tarixi. T. Sharq 2010 132-b

³⁵ R.Shamsiddinov, Sh Karimov O` Ubaydullayev Vatan tarixi T. Sharq 2010. 132-b

yurtlarni kezgan Boborahim Mashrab Yaman, Hindiston, Dakan, Isfaxon, Hirot, Mashhad, Makka, Madina, Halab, Sherzod, Shom, Rum, so`ng Buxoro Toshkent, Shohimardon, Avg`onistondagi Shibirg`on, Andixo`y kabi joylarda ham bo`ladi.

Buni O`zbekiston FA sharqshunoslik institutida saqlanayotgan 9968 raqamli qo`lyozma asoslab beradi. Unda Mashrabning “Kimyo” asaridan `16 kimyo (bob) va “ mabdai nur” kitobidan ikkinchi daftari, so`ng shoirning 71 g`azali, 7muhammasi va bitta musaddasi berilgan.³⁶

Mashrab she`rlarida o`zi yashagan davr hukmronlarining mehnatkash xalqqa qarshi qaratilgan siyosatini, boylar, amaldor to`ralar va chalasavod mullalarning riyo korliklari munofiqliklari, o`zboshimchaliklari, xullas o`rta asr zulmining barcha illatlari fosh etiladi. Xalqning og`ir qismatiga achinadi.

Dili Tig`i sitamdin, pora bo`lgan xalqni ko`rdim,

Tani dardu alamdan yora bulg`on xalqni ko`rdim.

San`at.

O`rta Osiyodagi xonliklarda XVIII-XIX asrlarda xo`jalik tushkunlikka yuz tutib borayotgan va aholi turmushi tobora tubanlashayotgan bo`lsada san`at va me`morchilik taraqqiyotida bir qator ibratli ishlarning amalga oshirilganligiga guvoh bo`lamiz.

Yuqorida biz alohida ta`kidlagan mashhur shoira Nodira haqida uning zamondoshi, saroy shoiri Hojar shunday deydi: “Umarxon vafotidan so`ng bu iffat sadafining injusi Farg`ona, Toshkent, Xo`jand, Andijon va boshqa shaharlarda fozillar, olimlar, hattotlar, naqqoshlarni o`z hizmatiga chaqirtirib keldi”.

Bu davrda qurilgan ulkan va go`zal me`morchilik yodgorliklari hozirgi kunda ham har qanday kishining diqqat e`tiborini o`ziga tortadi.

XVII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning birinchi yarmida Qo`qon xonligida ham xalq me`morchiligi rivojlanadi. Xonlikning markazi Qo`qon shahrida, Marg`ilon, Andijon, Namangan, Toshkent shaharlarida masjid,

³⁶ R/Shamsutdinov, Sh/ Karimov, O`.Ubaydullayev. vatan tarixi. T.,”Sharq” 2010, 134-bet.

madrasalar, kutubxonalar quriladi. Binolarni bezatish uchun ham gul namunalari keng qo'llanilib naqshlar chizish, naqshlarni ganchga o'yib solish odat bo'ladi. O'sha davrda ham uchala xonlikda ham yuqoridagidek inshoot qurilishi va hunarmandchilik san'atining turli yo'nalishlari rivoj topadi. Bulardan tashqari yog'och va misga o'yib nozik naqshlar solish, sopol va chinini yarog'-aslahalar yasash va har xil uy-ro'zg'or buyumlari matolar to'qish keng tarqaladi.³⁷

Qo'qon shahri o'ziga xos yodgorliklari bilan ham mashhurdir. Bu borada Qo'qon shu kunga qadar saqlanib qolgan tarixiy me'morchilik yodgorliklari bilan Samarqand, Xiva, Buxorodan keyin to'rtinchi o'rinda turadi.

Bu borada xususan Xudoyorxon o'rdasi Norbo'tabiy madrasasi, Kamol madrasasi qozi kabi boshqa o'nlab tarixiy obidalar diqqatga loyiqdir.

Ko'plab tarixiy me'moriy yodgorliklar urush ob-havo va yer qimirlashlari-zilzilalar tufayli buzilib vayronaga aylanadi, yoki yo'q bo'lib ketadi. Jumladan, 1815-yilda Qo'qon shaxrida yuz bergan zilzila oqibatida juda ko'plab odamlar uylar tagida qolib, halok bo'ldilar. Ayrim joylarda yerlar yorilib ketadi.

Bir necha kishilar unga tushib halok bo'ladi. Yerdan tutun chiqib suv favvora bo'lib otilgan. Yer olti oy davomida silkinib turgan.

Teatr san'atida masqarabozlik, qiziqchilik, dorbozlik, qo'g'irchoqbozlik kabi tomosha ko'rinishlari keng tarqaldi. Masalan, Buxoro amirligining turli shaharlarida XVIII-XIX asrlarida Sayfulla Masxara, Zokir Masxara, Ergash Masxara kabi artistlar "Rais", "Sudxo'ring o'limi", "Ko'histonlik domla", "Murobboshi" singari asarlarini sahnalarda mohirlik bilan ijro etganlar.

XIX asrda qo'g'irchoq teatrining Shosalix, G'ofur, Halfarang (Qo'qon), Orifjon qo'g'irchoqboz, Azimburin, Doniyor (Toshkent), Shomuxuddin Shoazimov, Tursinboy Abduljabborov, (Marg'ilon), Siddiqkalon, Jo'raqaynoq qo'g'irchoqboz (Samarqand) Zarikmisgar, Sharif sayyoh, Qori Xoji, (Buxoro), Qilich (Shahrisabz) va boshqa shular singari ustalar bo'lgan. Xonliklar hududida raqs san'atining Farg'ona, Buxoro, Xorazm va tog'li usullari mavjud bo'lib, o'z navbatida ularning har biri o'ziga xos jang xususiyati va turlariga ega edi.

³⁷ R.Shamsiddinov, Sh Karimov, O'. Ubaydullayev. Vatan tarixi. T. Sharq. 2003, 143-144-b.

Masalan: Farg'ona o'yin san'ati "Katta o'yin", "Kema o'yin", "Xonaki o'yin", "Yalla", Xorazm o'yin san'ati "Maqom oyin", "Xonaki o'yin", "Lazgi", "Yalla", "Zangbozi" larni o'z ichiga olgan va hokazo. "107-o'yin" ko'proq O'zbekiston hududidagi janub xalqlari madaniyatiga xos bo'lib "Beshqarsak", "Uchqarsak", "Dastbozi" kabi usullardan iborat edi.

2.2. Me'morchilik va hunarmanchilikning ravnaqi. Xalq amaliy san'ati.

Qo'qon xonligi me'morchiligining o'ziga xos tomonlarini ko'rib chiqqan ekanmiz, bu mintaqaning qadim zamonlardan boshlab taraqqiy etgan madaniy maskanlardan biri bo'lganligini va teran me'morchilik hamda shaharsozlik tarixiga ega ekanligini ta'kidlab o'tmoq lozimdir. Qo'qon xonligining shaharsozlik madaniyati mil.avv. II-I ming yilliklarga borib taqaladi. Jumladan, Elaton, Buzilmas, Olis Iskandariya (Aleksandriya, Esxata) Oqtepa Qultepa Munchoqtepa Mug' qal'a, Ershi singari 2-3 ming yillik tarixni o'zida mujassamlashtirgan shahar xarobalarining qazib o'rganilganligi bundan dalolat berib turibdi.³⁸ Shuningdek, Hoson, Quva, O'zgan, Axxi shaharlari o'rta asr tarixiy manbalarida ko'p o'rinlarda tilga olinadi.

Ilk o'rta asrlar Farg'onaning yuksak madaniyati haqida Xitoy tarixiy manbalarida ma'lumotlar saqlangan. Temuriylar davriga kelib esa Umar Shayx hamda Bobur Mirzo tomonidan barpo etilgan shaharlar tafsiloti shoh asar "Boburnoma" da keng yaratilgan.

Demak, Qo'qon xonligi me'morchiligi butun O'rta Osiyo me'morchilik an'analarini o'ziga sindirish bilan birga qadimiy Farg'ona vodiysiga xos mahaliy madaniyat asosida yuzaga kelgan, shu sababli XVIII asr Qo'qon xonligi shaharlari asosan o'rta asrlarga oid feodal shaharlarga xos ko'rinishni ifoda etgan. Shaharlar ark va Shahristondan iborat bo'lgan. Shahriston markazlarida, ko'chalar kesishgan joy chorsuda odatdagicha bozor joylashgan. Bu ikki asosiy

³⁸ M.G. Ahmedov. O'rta Osiyo me'morchiligi tarixi. T. "O'zbekiston" 1995, 84-b

ko`chaning kesishishi natijasida shahar to`rt dahaga bo`lningan. Dahalar esa o`z navbatida bir necha mahalla va go`zarlardan shakillangan.

Qo`qon va Toshkent arklari “O`rda”deb atalgan. Toshkentdagi O`rda buzib tashlanganligi bois u haqida juda oz ma`lumot saqlanib qolgan. Ammo Qo`qondagi Xudoyorxon nomi bilan ma`lum bo`lgan o`rda bugungi kunga qadar yaxshi saqlanib qolgan.

Qo`oqn o`rdasi XIX asrda bunyod etilgan bo`lib, yaxlid imorat shaklida birlashgan bir necha katta va kichik hovlilarni o`ziga birlashtirgan. Uning umumiy sathi 4gektarni tashkil etadi.

Xalq amaliy san`ati.

Hunarmanchilik- o`zbek xonliklaridahunarmandchilik sanoati o`z davriga yarasha ancha taraqqiy etgan edi. Markaziy Osiyo xalqlari hayotida to`qimachilik (ipak) muhim ahamiyatga ega edi. Bu hunar egalari paxta, ipak, jundan turli narsalar to`qishgan. Ipak yegirishdan oldin paxtani chig`iriqdan o`tkazilgan. Ya`ni chigiti ajratib olingan. Chigiti ajratib olingan paxta tolasi charxdan yegirilib kalava qilingan va tayyor ipni to`qish do`konlariga jo`natilar edi. Bo`z to`qish keng avj olgan. Shahrisabz, Buxoro bo`zlari muhim o`rinni ish g`ol qilardi. Namangan, Andijon to`qimachilari to`qigan olacha, qalami, bo`z, chit, dokalari yaxshi sifati va bo`yoqlari bilan ajralib turar edi. Buxoroda sifati baland ikki xil chit, ya`ni chiti sari gaz va chiti chatti to`qilgan. Bu chitlar nafaqat ichki bozorlarda hatto qo`shni mamlakatlarda, Rossiyaga ham chiqarilar edi. Ipak mollar tayorlashga ham katta e`tibor berilgan. Xo`jand Andijon, Namangan va boshqa joylarda ipak kiyimlar to`qish ishlari avj olgan. XIX asr o`rtalarida o`lkada atlas, shoyi doroyi, oq shoyi, adras, beqasam, banoras gul bosilgan choyshablar va shunga o`xshash ko`p narsalar to`qilar edi.

Gilamchilik.

Gilamdo`z ustalar asrla mobaynida ko`p tarjibalarni to`plashga muyassar bo`lganlar. Xiva Buxoro, Samarqand, Xo`jand, Andijon shahar va ularning atroflarida olma gullari ko`plab to`qilgan. Hunarmand oilalarning gilam to`quvchilari chuval nomli uy-ro`zg`orda ishlatiladigan “to`y gilami” degan

gilam to`qilgan va unga turli ranglarda gullar bosilgan va boshqa turdagi rangdagi hamda Gudiz gilamlar ko`plab to`qilar edi. To`quvchilar faqat shaharlardagina emas shu bilan birga qishloqlarda ham rivojlanadi. Ammo to`quv dastgoxlari to`quvchilik ishlari iptidoiy usulda bo`lib ular oddiy dag`al matodan to`qish bilan shug`ullanadilar.

Biroq eng moxir to`quvchilar ham kuniga 14-16 soatlab ishlasalar ham topganlari o`z oilasiga yetmas edi. Qog`oz ishlab chiqarish o`lkadagi hunarlarning eng qadimgilardan hisoblangan. Qo`qon, Samarqand, Buxoroda ishlab chiqarilgan qog`ozlar ayniqsa ipakdan ishlab chiqarilgan qog`oz butun sharqqa nom chiqarilgan edi.³⁹

1863-yilda Turkistonning ko`plab shaharlarida bo`lgan Vengr sharqshunosi X.Vamberi. Samarqand va Buxoro qog`ozlari o`zining silliqligi bilan chet mamalakatlarida shuxrat topganligini qayd etadi. Qo`qon xonligiga qarashli Charq qishlog`idagi qurilgan qo`g`oz ishxonasi asosan suv kuchidan foydalanishga moslashtirilgan edi. Shuning uchun ham buni “qog`oz objuvozi” deb atashadi. Bu ishxonada asosan eski latta puttalar objuvoz orqali tozalanib, turli qog`ozlar tayorlanar edi. Muqavosozlik hunari ham uzoq tarixga egadir. Buxoro, Samarqand, Xiva, Urganch, Andijon, Namangan, Toshkent, Xo`jand kabi shaharlarda charm va qalin qo`g`ozlardan muqovalar qilish kengaygan. Bo`yoq hosil qilish va rangli bo`yoqlar ko`paygan. Bizgund degan qorabo`yoq va serparak yoki isparak degan to`q sariq bo`yoq ikki xil o`simlik aralashmasidan tayorlanradi. Turkiston yerlarida bo`yoqli o`simlik ro`yan ko`p bo`lib yovoyi holda o`sardi. Toshkent atroflarida va boshqa joylarda sarg`imtil isparak o`simligi o`sib unda sariq bo`yoq olingan. Boshqa turdagi bo`yoqlar – Hindiston, Avg`oniston, Eron va Rosiyadan keltirilardi.

Misgarlik katta shaharlarda (Buxoro, Qarshi, Toshkent, Samarqand, Xo`jand, Qo`qon, Andijon, Namangan) alohida misgarlik rastalari bo`lar edi. Misgarlik qo`mg`on, tovoq, cho`mich, qozon, ko`za barkash, choyidish, obdasta, samovar, choynak, paqir, lagan, siyohdon, karnay va shu kabi narsalar

³⁹ X.Vamberi. Путешествие по средней Азии 1967 стр 221.

yasashardi. Idishlarda gul kelish san`ati takomillashgan edi. Turkistonda hunarlar orasida eng qadimiylaridan biri zargarlikdir. Zargarlik asosan oltin, kumush va qimmatbaho rangli tolalardan xilma-xil shishalardan turli narsalar yasashardi.

Turkistonda kulolchilik keng yoyilgan edi kulollar ro`zg`orga kerakli har xil tovoq, piyola, kosa, ko`za, xum, tog`ora, tandir va boshqa narsalar yasardilar, g`isht quyardilar⁴⁰

Juvozkashlik o`lkada hunarlar orasida muhim o`rinni egallardi, juvozlarda asosan zig`ir moy va kunjut yog`i chiqarilardi. Urug`larda yog` olinardi. XIX asr o`rtalarida Toshkent shaharlarining o`zidagina 500 juvoz bor edi. Butun o`lkada esa bir necha o`n ming juvozxona bo`lgan. Duradgorchilik – ancha yetakchi bo`lgan. Duradgorlar qoshiq, cho`mich, qozon, qopqoq, xamir taxtasi, o`xlog`i, karson, sandal, beshik, panshaxa kurak, charx, chig`iriy, to`quvchilik do`koni dastgohi, omoch bo`yinturuq va boshqa asboblarni tayyorlar edi. Duradgorlarning ikkinchi guruhi esa uy, madrasa va machitlar uchun eshik darvoza tuynuk, darcha, kursi va boshqa narsalarga juda ustalik bilan o`yma gullar ishlar edilar.

O`lkaning katta shahsrlarida o`nlab va yuzlab aravasozlik ustaxonalari bor edi. Toshkent shahridagi aravasozlik ustaxonalarida 200 kishi ishlar edi. Hunarmandchilik sanoatida poyabzal ishlab chiqarish katta o`rinni tutardi. Bu hunar etikdo`zlik, kovushdo`zlik, maxsido`zlik dev nomlanar edi va h.k. lar.

Erkaklar kiyim kechagi. Kiyim kechak, moddiy-madaniyat ko`rinishlaridan biridir. Unda etnik tarix, ijtimoiy- munosabatlar mafkuraning ayrim unsurlari – e`tiqodlar, estetik me`yorlar aks etadi. Kiyim kechakda jamiyat a`zolarining ijtimoiy tengsizligi aniq namoyon bo`ladi.

O`zbeklarning XVIII asr va XIX asrning birinchi yarmidagi libosi asosan o`tgan vaqt shakillarini saqlab qolgan bo`lsada ayrim qismlari anchagina o`zgargan edi. Ayni vaqtda unga kiyim- kechakning yangi shakillari qo`shildi O`zbek erkaklarining libosi ko`ylak va ishton, ustki chopon, belbog`, bosh

⁴⁰ G.Xolliyev. X.G`ulomov. O`zbekiston tarixi. T. "Universitet, 1997, 46-b

kiyimi va poyafzaldan iborat edi. O'zbekistonning butun hududida to'g'ri keng yengli va yoqasi ko'ndalang o'yiqli, to'ni kasimon bichikli erkaklar ko'ylagi keng tarqalgan edi. Agar yoqa yirmochi haddan ortiq keng bichilgan bo'lsa, unda yelkalarga bir tomondan bog'lash uchun bog'ichlari tugilardi. Ko'ylakning doira yoqali keyinchalik "kiftaki" yoki "mullacha ko'ylak" deb atalgan turi ham chiqqan edi. Uni katta yoshdagi va nomdor kishilar kiyardi, u kuyovlar kiyim-kechagiga ham kirardi.

O'zbeklar ustki kiyimining eng ko'p tarqalgan turi keng va uzun yengli ustki chopondir. Uni hozirgi O'zbekiston hududidagi jamiyat barcha qatlamlarining vakillari kiyganlar. Qishloq aholisi choponlari alohida bezaksiz, ancha odiy bo'lgan. Shahar axlining, ayniqsa davlatmand kishilarning choponlari ancha nafis, tekis bo'ylama qaviqli qilib tikilar edi. Qimmatbaho choponlarning etagi va yenglari ipak iplar bilan bezatilar edi. Xorazm choponlari mayda qaviqlari va jiltligi bilan ajralib turardi. Badavlat kishilar qishda va tantanovor damlarda issiq bo'lishidan ko'ra ko'proq manmanlik o'z boyligini ta'kidlash uchun ikki uch choponni ustma-ust kiyar edilar.⁴¹

Buxoro amirligining dasht tumanlarida qishda ham, yozda ham paxtali chopon kiyardilar, u sovuqdan ham, issiqdan ham saqlar edi. Boshqa joylarda yozda astarli va astarsiz yengil yozlik yaxtak kiyardilar. XIX asr o'rtalarida shahar (masalan: Toshkent) aholisi modasiga ustki kiyimning yangi turi – tatarlardan olingan kamzol kirib keldi. U chopondan ancha yengil edi. U astarli qilib tikilar edi va uni yozda asosan katta yoshli kishilar kiyardi. Chopon mahaliy sidirg'a yoki yo'l-yo'l matta (alak, olacha va hokazo) dan, shuningdek qalin ipak, atlas, baxmaldan tikilar edi. Boy bezakli qimmatbaho choponlarni asosan xonlar beklar yuqori darajadagi amaldorlar kiyardi. Chopon eng xurmatli kiyim bo'lib, mehmon uchun eng yaxshi sovg'a hisoblanar edi. Yozlik va qishlik ustidan belbog' yoki junli naqshlar bilan bezatilgan to'qima, charm yoki baxmal kamar bog'lanar edi.

⁴¹ N.Norqulov, U.Jo'rayev. O'zbekiston tarixi. T., "Sharq" 2010, 219-b

Xorazm aholisi belbog` birga uch metrcha keladigan keng qo`shoq ham bog`lar edi. Qo`shoqning rangi shuningdek sifati egasining ijtimoiy mavqeyi va yoshiga bog`liq bo`lardi. Masalan, yo`l-yo`l ip matodan tikilgan qo`shoqni shaharlarining eng kambag`al aholisi bog`lardi. Bo`yalmagan jun matodan tikilgan qo`shoq katta yoshli erkaklar libosining tarkibiga kirar edi. Boy bayramona libos, ayniqsa kuyov libosi tarkibiga ipak kamarlar modali belbog` yoki terma belbo`g kirardi.

Ayollarning kiyim-kechagi.

Ayollarning asosiy kiyim-kechaklari ko`ylak, ishton, (lozim), xalat, (to`n, mursak, kaltacha) edi. Oyoqqa maxsikovush kiyiladi. Boshda ro`mol, boshqa bosh kiyimlari va ularning xillari (salla, kasava, kulta, lachan va hokozolar) o`ralardi. Shuningdek paranji, kurta va boshqalar yopinilardi.

Ayollar ko`ylagi uzun yengli qilib, tunikasimon tarzda erkin bichilardi. Yoqasi belgacha tikka o`yilar va keng jun yoki ipak tasma – jiyak solinar, yosh ayollarda esa zanjirsimon choklanardi.⁴²

Ayollar ko`ylagi erkaklar ko`ylagi kabi avvalo xomsurpdan, ko`pincha olachadan tikilardi. Ko`chalik va to`y kiyim-kechagi ipak yoki yarimipak matodan shoyi, atlas, roxo esa baxmaldan tayyorlanardi. Qimmat ko`ylaklarni badavlat xonadon ayollari qolgan ayyolar esa xonaki matodan tikilgan oddiy ko`ylaklarni kiyardilar.⁴³

Mursak, peshvon, paranji va to`n ayollarning ochiq barli ustki kiyim-boshining asosiy turlari sanalardi. O`zbekistonning qariyb butun hududida tarqalgan mursak uzun ochiq barli, tunikasimon, yoqasiz chopon edi. Mursak XIX asr o`rtalariga kelib, ayrim tumanlarda (masalan Toshkentda) modadan chiqadi, boshqa joylarda (Qashqadaryo va Sirdaryo, Buxoro voxasining ayrim tumanlarida) ustki yoki motam kiyimi shuningdek bosh yopgich (kurta, chelak) sifatida foydalanaverildi. Buxoroda ayollar Mursakning xaltacha deb ataladigan

⁴² O`zbekiston tarixi. R.G.Muqminova, N.N.Habibullayev G.A.A`zamova, E.E.Karimov, A.A.Tojiboyev taxr. Ostida T., "O`qituvchi" 1994, 187-b

⁴³ O`zbekiston tarixi. R.G.Muqminova, N.N.Habibullayev G.A.A`zamova, E.E.Karimov, A.A.Tojiboyev taxr. Ostida T., "O`qituvchi" 1994, 187-b

juda kalta turidan foydalanardilar. Paranji ayollar kiyim-kechagining alohida turidir.

Ayollar uni uydan chiqishda yopinardilar. Yuzga ot qilidan to`qilgan chachvon tutilardi. Paranji yelkaga yopiladigan kiyim chopon ancha bugungi shaklining bir turi edi. U orqaga tashlangan uzun yolg`on qo`lli cho`ziq to`rtburchak ko`rinishda bo`lardi. U ko`k rangli matodan astarli bo`lib tikilardi. Paranjini asosan shaharlarda yopildilar, ularni sotish uchun ham buyurtma bo`yicha o`sha joylarda tayyorlardilar. XIX asr o`rtalariga kelib Toshkent ayollari o`rtasida ochiq barli kiyim-kamzul kiyish rasm bo`ldi. Ikkita yon cho`ntakli, tikka yoki yotiq yoqali etib paxta yonini astar bilan qo`yib tikiladigan bu kiyim ustki kiyimga yopishib turardi. Charm kovush ayollar poyafzalining asosiy turi edi. U sirti yassi do`ngsasi baland va tumshug`i keng o`rtacha poshnali dag`al yashil yoki sariq charimdan tikilardi. Kovushning o`rtacha yoki past poshnali, sirti tor turi qora charmdan tayyorlanardi. Kovush bilan kiyiladigan maxsi ko`chalik poyafzal hisoblanardi.

Bezaklar.

O`zbek ayollari kunda va bayramlarda taqiladigan turli xil bezaklar taqardilar. Bayram bezaklari majmuyi peshona, bo`yin, chakka, burun, ko`krak va boshqa bir qancha ashyolardan iborat bo`lardi. Peshona bezaklari qoshlar yoyiga o`xshardi (tilla qosh). Chakka bezaklari (gajaklar) kumush va tilladan suvi berilgan naychalar bo`lib, sochning uzun zulflari ulardan o`tkazilardi. Oltin va kumush bo`yin marjonlari, rang-barang xafanbonular bo`yinga yopishib turardi. Quloqlarga ilmoqli ziraklar taqilardi. Qizlar uchun qimmatbaho bezaklar erga chiqishdan avval sotib olinardi. Davlatmand oilalardan bo`lgan ayollar (asosan shaharlarda) peshovuz va peshxalta deb atalgan ko`krak bezaklari taqardilar. Peshovuz qosh terish mo`ychinagiga va ayollar pardoz andozining boshqa ayollarga o`xshash ilmoqli tilla (tilla suvi yuritilgan) qubbacha shaklida bo`lib, ayollar ko`ylagining yon etagiga taqib qo`yilardi. Ilmoqlari ichida

kalitchalari bo'lgan peshxalta ham shunday taqilardi.⁴⁴ Aftidan, kalitchalar savlatlilik vazifasini bajarardi. Qimmatbaho bezaklar asosan kumush, oltin va nodir toshlardan yasalardi ularni badavlat xonadonlargina olardi, bunga mehnatkash xalqning qurbi yetmasdi. Buxoro, Samarqand, Xiva, Toshkent, Qo`qon, Marg`ilon va boshqa shaharlarning hunarmandlari bezaklarning barcha turlari bilan savdo qilardilar. Hunarmandlar ularning mahalliy aholining an`analari va didini hisobga olgan holda tayyorlardilar.

III-bob. Qo`qon xonligining tugatilishi

3.1. Qo`qon xonligi hududlarining Rossiya Imperiyasi tomonidan bosib olinishi.

Markaziy Osiyoni zabt etish tashabbusini Pyotr I boshlab bergan u 1817-yili knyaz Bekovich Cherkas 6574 kishilik qo`shini 3727 piyoda, 617 otliq askarlar, 2000 qozoq, 230 dengizchilar va 22 ta to`pni Xivani egallashga yubordi. Xorazmxoni Sherg`ozixonning ishbilarmonligi, tadbirkorligi bilan olib borilgan jang tufayli Bekovich Cherkaskiy sarbozlari qirib tashlandi. Chor ma`murlari Qo`qon xonligini tamomila egallash uchun faqat XVIII asrning o`zida Qozog`iston yerlarida 46 ta katta va 96 ta kichik harbiy istexkomlar qurdilar. 1864-yil 16-iyunga qadar chor armiyasi qo`shinlari ikki yo`nalish bo`yicha mustaqil harakatni davom ettirgan. Sibir –Yerkend tomonidan 8-g`arbiy sibir 21-sibir qozoq armiyasi batareyasi Orenburg –Xiva yo`nalishi bo`yicha esa 4- Orenburgliniya batyoni 1864 yildan boshlab 2- Orenburgliniya 1-Vzvozdi, 1865 yilda Turkiston viloyatining tashkil etilishi bilan 6-va 9-Orenburg liniyalari batolyoni janub tomondan o`z xarakati davom ettirib shahar va qishloqlarni birin ketin egallab bordi.⁴⁵

1847 yili general Obruchev orol dengizining shimoliy qirg`og`ini egallab Rai`m qal`asini barpo etdi.

⁴⁴ O`zbekiston tarixi. R.G.Muqminova, N.N. Habibullayev, G.A.Azamova, E.E.Karimov, A.A.Tojiboyev. tahr. T., "O`qituvchi" 1994. 189-b

⁴⁵ G.Xolliyev, X.G`ulomov O`zbekiston tarixi, T. "Universitet" 1997, 59-b

23-avgustda polkovnik Yerofev 200 kazak va saldatlar hamda 2 to'p bilan Xiva qo'shinlarini tor-mor keltirdi. Jahon Xo'ja qal'asini egalladi. "Nikolay" va "Konstantin" nomli kemalar bilan orol flotiliyasini tashkil etdi.

1848-yili Xiva xonligida qarashli Xo'janiyoz qal'asini qo'lga kiritildi va vayron qilindi.

1852-1853-yillarda polkovnik Blaramberg va Graf Petrovskiy bo'linmalari Qo'qon xonligiga qarashli Kumush, Qo'rg'on, Chimqo'rg'on, qo'shqo'rg'on va Oq masjid (qizil o'rda)ni egalladi.

1860-yili Pishpakni olish uchun chor qo'shinlari bilan Qo'qon qo'shinlari o'rtasida to'qnashuv yuz berdi. Polkovnik Simmerman qo'shini Qo'qon xonligining beshming kishilik qo'shinini tor-mor keltirib, To'qmoq va Pishpek qal'alarini egalladi. Bu hol butun xonlikda xalq noroziligini kuchaytirdi. O'zbek Qozoq va Qirg'izlar Toshkent hokimini qanoat shoh boshchiligida yigirmaming sarboz birlashtirdi. G'azovat e'lon qiladilar. Pishpak ostonalarida qonli to'nashuvlar bo'ldi. Dushman askarlaridan 13 kishi o'ldirildi va yigirma uch kishi jarohatlanadi. 576 nafar sarboz, shundan 23 nafar sarboz boshlig'i asrlikka olingan. 1863- yili yozida polkovnik Chernyayev Sirdaryo yoqasidagi Suvzoq qal'asini Rossiya mulkiga o'tkazib xonlik ichkarisiga qarab yurishni davom ettirdi.

1864-yil boshida Olmota (Verniy) qal'asidan 2500 kishilik chernyayev otryad 4-iyun Avliyosta ostonasida 1500 kishilik Qo'qon qo'shinlari to'qnashadi. Bu gal ham Qo'qonliklar mag'lubiyatga uchrab, 307 kishi o'ladi. 309tasi jarohatlanadi.

Polkovnik Chernyayev bilan izma-iz Pereozkiy(Oqmachit) qo'rg'onidan chiqqan polkovnik Vereyovkin otryadi Turkiston shahriga yurish qiladi. Ma'lumki Turkiston shahri o'sha vaqtda kiraverishdagi birinchi shahar bo'lgan, shaharda "Hazrat masjidi" bo'lib, ayrim paytlari shaharning o'zini ham "Hazrat sulton" deyishgan chor qo'mondoni agar shahar taslim bo'lmasa, Ahmad Yassaviy maqbarasiga to'p otilishini ma'lum qiladi. Himoyachilar bu muqaddas madaniyat ko'rkini yer bilan yakson bo'lishini xoxlamasdan urushni to'xtatishga

majbur bo'ldilar. Shundan so'ng urush qo'shinlari shaharni 12-iyunda bosib oldilar.⁴⁶

Turkiston shahri bosib olingandan so'ng qo'qonliklar payg'ambarning ko'k bayrog'i ostida "muqaddas" urush e'lon qildi. Shundan so'ng Toshkent chorizm bosqinchilariga qarshi kurash markaziga aylandi. Bu yerga Marg'ilonidan Yusufbek, Xo'janddan Mirza Ahmad, Qushbegi qo'mandonligida qo'shinlar, shuningdek Andijon, Namangan, O'sh va boshqa joylardan harbiy qismlar keltirildi.

Qo'shinlarga Qo'qon xonligining lashkarboshisi Alimqul boshchilik qilib Chimkentni himoya qilishga yuradi bu xabarni eshitgan Chernyayev Avliyo Otadan 1300 kishini Veryovkin esa 300 kishi va 30ta qozoqni kapitan Mayer boshchiligida yuboradi. Chimkent uchun bo'lgan jangda har ikki tomondan ham ming minglab kishilar halok bo'ldilar va yaralandilar. Alimqul Buxoro amiri Muzaffarxon Qo'qonga hujum qilganligi to'g'risidagi ig'vo xabarni eshitgach, bir qism qo'shinlarni Chimkent mudofasiga qoldirib Qo'qonga qaytadi. Bundan foydalangan Chernyanev 1864-yilning 21-sentabrda Chimkentni jang bilan egallashga muvoffiq bo'ldi. Chimkentni bosib olgan chor qo'shinlari 1864-yilning 27-sentabrda Toshkentni egallash uchun jiddiy kirishadi. Ma'lumki, Toshkent Qo'qon xonligining eng yirik va muhim strategik ahamiyatga ega shahari hisoblanardi. Lekin Toshkentni egallash chor qo'shinlari uchun oson kechmadi. Toshkent uchun shiddatli janglar bo'lib o'tadi. Va nihoyat, 1865-yilning 17 iyulida toshkentliklar dushman hujumiga bardosh bera olmay taslim bo'lishdan o'zga chora topa olmaydilar. 1867 yil 14 iyulda Rossiya imperatori AleksandrII Qo'qon va Buxorodan tortib olinib Rossiyaga qo'shilgan hududlar hisobiga Turkiston general gubernatorligini tuzish to'g'risida farmon berdi. Uning birinchi okrug qo'mondoni va general gubernator qilib general adyutant fon K.P.Kaufman tayinlandi. Unga imperator AleksandrII cheklanmagan vakolatlar berdi. General gubernator dastaval ikki viloyatdan tashkil topdi. Markazi Toshkent bo'lgan-Sikrdaryo va markazi Verniy shahri bo'lgan-

⁴⁶ G.Xolliyev. X.G'ulomov. O'zbekiston tarixi. T., "Universitet", 1997, 61-b

Yettisuv Kaufmannning tashqi siyosati Markaziy Osiyodagi uch o'zbek xonligini darajasida ya'ni tobelikda ushlab turishdan iborat edi.⁴⁷ Shu sababli u “bo'lib tashla hukmronlik qilaver” shioriga amal qilib, xonliklarni bir-biridan ajratib tashlab, ularning kuchsizlanishida ham turli xil xalq harakatlarini bostirishda shu shiorga amal qiladi.

Xiva xonligi rus bosqinchilari tomonidan bosib olinib turkmanlar hududida qizg'in janglar davom etayotgan bir paytda Turkiston general-gubernatori fon Kaufman Qo`qon xonligini tugatishga kirishdi.

Chor Rusiyasining Turkiston xalqlariga nisbatan yurgizgan mustamlakachilik, ulug' davlatchilik va shovinistik siyosati albatta qonuniy suratda mahalliy aholining o'z milliy ozodligi, erki va insoniy haq-huquqlarini himoya qilish uchun muqaddas jangga otlantiradi. Chorizm tomonidan asoratga solingan, mustamlaka qilingan xalqlar dastlabki kunlardan boshlab o'z milliy mustaqilliklari, ozodliklari va erklari uchun kurashib keldilar. E'tibor qiling:

- 1.1856-yilda Sirdaryoda Jonho'ja Nurmuhammad qo'zg'oloni.
- 2.1868-yilda Samarqand mudofaasi va Buxoro amirligi Buxoro shahri, Shahrisabz bekligidagi harakatlar.
- 3.1870-yilda Mang'ishloq qirg'izlarining isyonlari.
- 4.1871-yilda Eshon Eshmuhammad boshchiligida Sirdaryo viloyatidagi chiqishlar.
- 5.1871 -yildagi Farg'onada Yetimxon qo'zg'oloni.
- 6.1872-yildagi Chirchiqdagi isyonlar.
- 7.1872-1876-yildagi Po'latxon boshchiligida Qo'qondagi qo'zg'olon.
- 8.1885-yildagi Darvishxon boshchiligidagi qo'zg'olon.
- 9.1892-yildagi Toshkent qo'zg'oloni.
- 10.1898-yilda Andijondagi Dukchi Eshon qo'zg'oloni.
- 11.1899-yilda Sirdaryo viloyatidagi harakatlar.
- 12.1916-yil Jizzax qo'zg'oloni va boshqalar.

⁴⁷ A.Nabiyev. Mustaqillik muchun kurash yoxud parchalangan Turkiston tarixi T., “Yozuvchi”, 1998, 59 b

Chor Rossiyasi hukumatining o'tkazgan siyosatiga qarshi milliy ozodlik kurashlari juda ko'p bo'lgan. Biz yuqorida ularning ba'zilarinigina sanab o'tdik. 1887-1897-yillar mobaynida Farg'ona, Samarqand va Sirdaryoda, mustamlakachilar idoralariga qarshi 668 marta hujum bo'lgan. 1897-1917-yillar orasida Turkistonda Rusiya bosqinchilariga qarshi 4922 marta isyon bo'lgan⁴⁸. Ana shu qo'zg'olonlar va milliy ozodlik kurashlaridan ba'zilarini eslash joizdir⁴⁹.

1885-yilda Farg'ona vodiysida mustamlakachi hukumatga qarshi umumxalq qo'zg'oloniga tayyorgarlik ko'rildi.

Vodiyning bir qator joylarida qo'zg'olonga tayyorgarlik ko'rish masalalari yashirin yig'ilishlarda ko'rilayotganidan mustamlakachi ma'murlar xabar topgan edilar. Shunday yig'ilishlardan biri 1885-yil 16-avgustida Asaka qishlog'ida Mullaxo'ja Nazirmirza uyida bo'lib o'tadi. Vodiyning turli joylaridan kelgan 20 dan ortiq nufuzli kishilar qatnashgan bu yig'ilishda yurtni diet el bosqinchilaridan ozod qilish, o'lkada milliy davlatni tiklash uchun mustamlakachilarga qarshi birlashib kurash olib borish vazifasi ilgari suriladi. Yig'ilishda qo'zg'olon rejasi, uni o'tkazish vaqti, qo'zg'olonga rahbarlik qiladigan shaxs kabi masalalar hal etiladi. Qo'zg'olonga rahbarlik qilishga Darvishxon Eshon To'ra ko'rsatiladi. Bunga sabab bu vaqtda aholining norozilik harakatida faol ishtirok etib el-yurtga an-cha tanilib qolgan edi. U Andijon uyezdi Qo'rg'ontepa volostiga qarashli Chekto'ra qishlog'i fuqarosi, qo'zg'olonga rahbarlik qilgan paytda 45 yoshda bo'lib, Andijon va Qo'qon uyezdlarida ancha katta yer mulkka ega bo'lgan. Ammo shunga qaramasdan Darvishxon o'z manfaatidan xalq, vatan manfaatlarini ustun qo'yib, milliy ozodlik harakatiga boshchilik qiladi. U qisqa vaqt ichida O'sh, Andijon uyezdlari volost va qishloqlarida ko'plab aholini qo'zg'olonga jalb eta oladi.

Darvishxon boshliq qo'zg'olonchilar yangi Marg'ilon shah-rini Andijon va Qo'qon bilan bog'lovchi aloqa simlarini uzib tashlaydi. Bu hodisa to'g'risida keyinchalik mustamlakachi hukumat vakillaridan biri «bu hodisa qo'zg'olon

⁴⁸ Misr o'g'li Qodir. Moskva zulmi, II jild, Istanbul, 1972, 537-bet.

⁴⁹ R.Shamsutdinov, Sh.Karimov, Q.Ubaydullayev. Vatan tarixi. T, "Sharq", 2010, 181-bet.

boiishi muqarrar ekanligini ko'rsatgan edi» deb xotirlagan.⁵⁰ Darvishxon boshchiligidagi qo'zg'olonchilar ko'lami tobora kengayib bo-radi. Asaka, Qo'rg'ontepa, Shahrixon, Oltinko'l, Jalolquduq, O'sh uyezdining Novqat, Tutlik qishloqlari, Oqbo'yra volosti, Marg'ilon kabi joylar ham qo'zg'olon girdobiga tortilgandi.

Qo'zg'olon shunchalik keskin tus oldiki, uni bostirish uchun mustamlakachi hukumat viloyatni turli joylariga, jumladan

Andijon, O'sh va Marg'ilon uyezdlariga harbiy kuchlarni yuborishga majbur bo'ladi. Vodiy bo'ylab borgan sayin avj olayotgan Darvishxon rahbarligidagi qo'zg'olonni bostirish va uning rahbarlarini qo'lga olish vazifasi Andijon uyezdi boshlig'i kapitan Bryanovga topshirilgandi. Uning ixtiyoriga O'sh uyezdining boshlig'i podpolkovnik Deybner, uning yordamchisi kapitan Glishanovskiylar boshchiligidagi harbiy kuchlar yuboriladi.

Qo'zg'olonchilar bilan Bryanov boshchiligidagi harbiy kuchlar birinchi bor 17-avgust kuni kechqurun to'qnashadi. Kutilmaganda qilingan hujumdan Darvishxon boshchiligidagi qo'zg'olonchilar har tomonga chekinishga majbur bo'ladilar. Shundan so'ng Darvishxon Namangan tog'lari tomonida o'z atrofiga 800 ga yaqin odam to'plashga erishadi.

Darvishxon boshchiligidagi qo'zg'olon to'g'risida Turkis-ton general-gubernatori O.Rozenbax Rossiya harbiy vaziri P.S. Vannovskiye yozgan xatida «qo'zg'olon viloyatning turli joylarida bir vaqtda boshlanishi va qo'zg'olonchilarning o'g'rilik va talonchilik qilmasdan, barcha aholini bu harakatga chaqirilishi, bu harakatning to'liq ma'noda amaldagi hukumatga qarshi qaratilganligini ko'rsatadi... ular yomon qurollangan, oz sonli bo'lishlariga qaramasdan jiddiy tartibsizliklarni kel-tirib chiqarishlari..., ayniqsa soliqlar to'lanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi».⁵¹

⁵⁰ Tillaboyev S. Mustamlakachilarga qarshi Darvishxon boshchiligidagi qo'zg'olon. «O'zbekiston tarixi», T.: 2002, 1-son. 12-13-betlar.

⁵¹ Tillaboyev S. Kursatilgan adabiyot, 22-bet.

Chorizm ma'murlari kuch bilan qo'zg'olonni shafqatsizlarcha bostirdilar. Qo'zg'olonchilardan shunchalik darajada ko'p qamoqqa olindiki, hatto ularni qamash uchun joy masalasi muammo bo'lib qolgandi, qo'zg'olon rahbari Darvishxon 1886-yil 22-fevralda Samarqand viloyatining Sutxona qishlog'i yaqinida qo'lga olinadi, lekin u Jizzax yaqinida qochib qutulib ketadi. Darvishxon akasi Iskandarning bergan ma'lumotiga ko'ra 1889-yili Afg'onistonda vafot etgan. Uning boshchiligidagi qo'zg'olon garchand bostirilsada, biroq u bundan keyingi milliy ozodlik harakatlariga zamin hozirladi.

Bu davrda xonlik o'z boshidan og'ir vaziyatni kechirayotgan edi. Bu davlatga shimoldan Rossiya, janubdan Xitoyning hu-jumi xavf tug'dirayotgan edi. 1865-yili Sharqiy Turkistonda xitoyliklarga qarshi yangi milliy isyon boshlangan edi. Qo'qon xonligida bu isyonga xayrixohlik bildiriladi. Yoqubbek bosh-chiligida harbiy qo'shin Sharqiy Turkistonliklarga yordamga keladi va xitoyliklar bu mintaqadan quvib chiqariladi. Mustaqil Sharqiy Turkiston davlati vujudga keldi. Bu davlat Qo'qon xonli-gi va Turkiya davlatlari bilan yaqin aloqa o'rnatishga harakat qi-ladi. Ammo Yoqubbek tashkil etgan mustaqil Sharqiy Turkiston davlati Xitoy tomonidan 1875-yili bosib olinadi⁵².

Ayni shu vaqtda chor istilochilari Qo'qon xonligini tugatishga kirishadilar. Ular Turkiston, Chimkent, Toshkent va boshqa joylarni bosib olib Qo'qon xonligiga qattiq zarba bergan edilar. Qo'qon xoni Xudoyorxon qo'rqqoq va tadbirsiz bo'lganligi uchun vatan himoyasi yo'lida biron arzigulik ish qilmaydi. Aksincha, chor hukumati panohida o'z taxtida o'tirishni o'ylardi, xolos. U 1868-yili chorizm bilan sulh tuzadi va amalda Rossiyaga qaram bo'lib qoladi, uning itoatkorligini taqdirlagan chor hukumati Xu-doyorxonni Rossiya davlati or-deni bilan mukofotlaydi va unga «Aslzoda» degan faxriy unvon beriladi. Xudoyorxonning **Du siyobau an rib** yuboradi. Buning ustiga xonning zulmi tobora kuchayib boradi. Natijada 1872-yili xalq qo'zg'oloni ko'tariladi. 1876-

⁵² Mazkur mavzu batafsilroq quyidagi asarlarda aks ettirilgan: O'zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. 146-178-betlar: X.Bobobekov. Po'latxon qo'zg'oloni. T., 1996:

yilgacha davom etgan bu qo'zg'olonga marg'ilonlik Is'hoq Mulla Hasan o'g'li boshchilik qiladi. 1872-yilda bir guruh norozi zodagonlar Xudoyorxonning qarindoshlaridan bo'lgan Po'latbekni taxtga ko'tarmoqchi bo'ladilar. U taxtdan voz kechgach, fitnachilar roziligi bilan, Po'latbek ismini olgan Is'hoq Mulla g'azovotning boshida turadi. 1873-yilda unga Abdurahmon oftobachi (Qo'qonning sobiq hukmdori Musulmonqulning o'g'li), bundan tashqari Xudoyorxonning to'ng'ich o'g'li Nasriddin (Andijon ho-kimi) va akasi Murodbek (Marg'ilon hokimi) kelib qo'shiladilar. Qo'zg'olonni bostirishga ojizligini payqagan Xudoyorxon «pushti panoh imperatur hazrati oliylari»ning qudratiga suyanadi va fon Kaufmanga «do'stona» murojaat qilib, iloji boricha tezlik bilan Qo'qonga o'rus qo'shini va zambaraklarini yuborishni so'raydi.

Yurtni sotganligi uchun Xudoyorxon va yaqinlariga qarshi g'azovat e'lon qilinadi. Xudoyorxon 1875-yil 2-iyul kuni o'z oilasi bilan Toshkentga, rus elchixonasi panohiga qochib boradi. Ta-rixchi olim X.Bobobekovning yozishicha 1875-yil yozida, Qo'qon xoni Xudoyorxon 70 kishilik ahli ayoli, 500 ga yaqin hamrohlari, 40 arava xazina bilan Toshkentga Turkiston general gubernatori fon Kaufman huzuriga panoh tortib kelgan. Kaufman 40 arava xalq boyligini olib Xudoyorxonning o'zini Orenburgga surgun qilgan. Keyinchalik xon Orenburg tutqinligidan qochgan.

Toshkentdan chiqqan rus qo'shinlari bilan qo'qonliklar o'rtasidagi birinchi jang (kichik janglarni hisobga olmaganda) Mahram qal'asida bo'ladi. Bu qal'ada 60 ming atrofida sarboz bor edi (ba'zi manbalarda 30 ming va 50 ming raqami qayd etiladi). Qal'a zambarak o'qlari ostida 10 daqiqada vayron bo'ladi. Jang qanday o'tgani va qancha odam nobud bo'lgani haqida yaxshisi hujjatlar tili bilan gapirgan ma'qul.

«Mahram atrofida dushman (o'zbeklar - mualliflar) qancha talofot ko'rganini aniq raqamlarda ifodalash qiyin. To'siqlar orqasida va Mahram qal'asi ichida 100 dan ortiq murda topi-lib, dafn etildi. Mahram orqasidagi maydonda kazaklarning qilichi bilan chopilgan 1000 dan ortiq murdani otryaddagi yigitlar yig'ishtirib olishib, ko'mishdi; general fon Kaufmanning qo'riqchi bo'linmasi

daryo yoqalab qochayotganlarni quvib, 100 kishini qilichdan o'tkazdi. Tog'dan tushib kelib otryadlarimizga qo'shilgan chavandozlar ham ko'p qurbon berishdi. Ulardan qanchasi o'lib, qanchasi yarador bo'lgani noma'lum. Juda ko'p qo'qonliklar Sirdaryoga cho'kib ketdi. Ochig'ini aytganda, shafqatsiz qirg'in ro'y berdi, Chegaramizni buzishga jur'at etib, yerlarimizga bostirib kirishgani va bizga tobe odamlarning osoyishtaligini buzgani uchun munosib intiqom olindi». «Rayimxo'janing hikoya qilishicha, Mahramni olish chog'ida general Kaufman o'zini juda xotirjam tutgan. Rus qarorgohi yaqiniga o'qlar uchib kelib, to'p o'qlari yorilib, bir askar va bir yigit yarador bo'lgan. Shundan keyingina Kaufman general Golovachovga qal'ani to'pga tutishni buyurgan. Ikki zambarak qulay marrani egallab, yaqin masofadan qal'ani yakson qilishga kirishadi. O'n minutdan keyin qal'a vayron bo'lgan va rus askarlari hujumga o'tadi. Yerlilarning juda ko'pi o'ldirildi, qo'rquvdan o'zini daryoga tashlab g'arq bo'lganlarning son-sanog'i yo'q edi. Hujum tamom bo'lib hammayoq tinchigandan keyin nihoyatda dimog'i chog' Kaufman Rayimxo'janing oldiga kelib: «Rus askarlari qanday urushar ekan» - deb so'radi. Yaxshi urushdilar, a'lo hazratlari», - deb javob berdi Rayimxo'ja. General Kaufman bunga javoban: «Xudo xohlasa, butun Farg'onani mana shunday jangovar harakatlar bilan bo'ysundiramiz va qo'shib olamiz», deb aytdi.

Skobelevning ma'lumotnomasiga ko'ra-, jang maydonidan 2000 salla yig'ib olingan. Vereshchagin buni ikkiga bo'ladi, ammo «jang chakki bo'lmadi» deb qo'shib qo'ydi».

«Biz 39 zambarak (daryoga tushib ketgan to'p bu hisobga kirmaydi) 1500 miltiq, behisob nayza, qilich, cho'qmor, 50 dan ortiq tug', bayroq, nishonlarni o'lja qilib oldik. Qal'ada o'q-dori, snaryadlar va qo'rg'oshin hamda 1910 pud un, 837 pud guruch, 320 pud jo'xori saqlanayotgan katta omborxonalar topildi, 224 ta ot qo'lga olindi.

Ko'rgan talofotlarimiz: 6 kishi o'ldirildi (1 qarorgoh zobiti, 4 oddiy askar va bir yigit), 8 kishi yarador (bir qarorgoh zobiti va 7 quyi amaldagilar) bo'ldi.

Dushman talofotini 1200 kishi deyish mumkin. 149 zambarak o'qi, 29 raketa va 9.387 patron ishlatildi.

Jangdan keyin Kaufman Toshkent orqali Oliy hazrat janobi oliylari nomiga g'alaba, qo'lga tushgan o'ljalar va qurbonlar soni ma'lum qilingan telegramma yubordi: «...dushman to'la mag'lub etildi: uning xonlikning aholisiga ta'siri nihoyatda katta bo'ldi, ammo Mahram jangining oqibatlarini haqida oldindan bir narsa deyish qiyin. Xo'janddan kutilayotgan qo'shimcha ulov kelishi bilan Qo'qon sari harakatni davom ettiraman. Sizga tobe ulug' imperator qo'shinlari o'z shuhratiga munosib mardona jang qila-di. Vazifa a'lo darajada bajarildi».

A.I.Terentyev yana quyida-gi ma'lumotini beradi: Aderkas (chor zobiti) Qashqar qishlog'ida dushmanning ot-aravalari bilan kelayotgan to'dalariga duch kelib qoldi. Ko'cha butunlay chang-to'zon bilan qoplangandi. Kazaklar .chang to'dasiga qarata miltiqlardan o'q uzib, so'ng hujumga o'tishdi. Oqibatda to'rt bayroq, 25 miltiq, behisob qilich va nayza, bir qancha ot va yuk ortilgan 10 arava o'lja olindi. Biz talofat ko'rmadik. 40 ga yaqin dushman o'ldirildi». «Dushman (Namangandagi jang tafsiloti) Skobelevning hisobiga ko'ra (musulmonlar uchun qog'oz ham xayf) 3800 kishini yo'qotdi. Uch kun ichida bizning talofatimiz: quyi amaldagilardan olti kishi o'ldi, 29 kishi yarador bo'ldi, 3 zo-bityaralandi».

Xullas, 29 avgustda general K.P.Kaufman boshliq rus qo'shini Qo'qon shahriga g'olib sifatida kirib keldi. Qo'qon a'yonlari Xudoyorxonning o'g'li Nasriddinbek boshchiligida undan ke-chirim so'raydilar. 1875-yil 22-sentabrda Nasriddinbek bilan Kaufman o'rtasida olib borilgan muzokaralardan so'ng tengsiz va sharmandali bitim imzolandi.

Bu bitimga ko'ra Qo'qon xoni o'zini Rossiya saltanatining quli deb tan oladi, qo'shni xonliklar bilan hech qanday aloqalar va munosabatlar qilmaslikka va'da beradi. Sirdaryoning o'ng qirg'og'idagi barcha yerlar Rossiya ixtiyoriga o'tadigan bo'ladi. Qo'qon xonligiga qarshi olib borilgan urushda rus armiyasi ko'rgan olti yuz ming so'm hajmdagi zararni to'lash Qo'qon xon-ligi yelkasiga yuklatiladi. Ayni chog'da shartnomada 1876-yil 1-noyabrdan boshlab Qo'qon

xonligi Rossiya xazinasiga har yili 500 ming so'mdan to'lab borishi shart qilib qo'yiladi. Bu so'mma besh yil davomida foiz haqini to'lash hisobidan kuchga kiradigan bo'ladi.

3.2.Qo`qon xonligining tugatilishi va Farg`ona viloyatining tashkil topishi.

1873 yilda Qo`qon xonligida Xudoyorxon va rus mustamlakalariga qarshi xalq qo`zg`aloni ko`tarildi. U 1876 yilgacha davom etdi. Qo`qon xonligida bu voqealar rus imperatorini tashvishga solib qo`ydi. Xayoti xavf ostida qolgan Xudoyorxon 1875 yilning 22-iyulida podsho hokimiyati himoyasi ostida Toshkentga qochib ketadi. Xudoyorxonning katta o`g`li Navriddinbek xon deb e`lon qilinadi. Agar xalq ommasi o`z mustaqilligi uchun bosqinchlarga qarshi kurash olib borayotgan bo`lsa, yangi xon podsho hokimiyati bilan yarashib o`z taxtini mustaxkamlab, olish yo`llarini qidira boshlaydilar. 1875-yil 25-sentabrda Nasriddinbek qo`zg`alanchilardan yashirincha Kaufman bilan shartnoma tuzdi. Shartnomaga ko`ra Nasriddinbek o`zini rus podshosining itoati xizmatkori deb tan oldi. U mustaqil ravishda tashqi siyosat olib bormaslik katta tovon to`lash va xonlik hududining bir qismini Rossiyaga qo`shib olinishiga rozi bo`ldi. Bu esa qo`zg`alanchilarning g`azabini uyg`otdi va qo`zg`alon xonlik hududida keng yoyilib ketdi. Qo`qon voqealari fon Kaufmanni jiddiy tashvishga solib qo`ydi, va bunday sharoitda u Qo`qon xonligining mustaqilligini tugatish haqida rus podshosi Aleksandr II dan rozilik oldi. Bundan ilhomlangan fon Kaufman general Skobelov ixtiyoriga katta kuch ajratib, Qo`qonni tiz cho`ktirishga qaratdi. Hatto xonlik hududini imperator Aleksandr II ning tug`ilgan kuniga sovg`a qilmoqni diliga tugdi shunday bo`lib chiqdi.⁵³ 1876 yil 19 fevralda rus imperatori Aleksandr II ning 12 fevraldagi farmoniga ko`ra, Rossiyaga (qo`shib) harbiy vaziri D Milyutin Qo`qon xonligi. Rossiyaga qo`shib olinganligi o`rniga Farg`ona viloyati tuzilganligi rasman e`lon qilindi. O`zining yovuzligi bilan dong chiqargan jazo ekspersiyasining boshlig`i jallod general Skobelov viloyat harbiy gubernatori qilib tayinladi. Qo`qon xonligini tugatishga shaxsan tashabbusini o`z qo`liga olgan Turkistonning birinchi gubernatori K.P.Kaufmen rus imperatori Aleksandr II ning eng arzanda generallaridan biriga aylandi. 1867 yildan 1881-yilga qadar Turkiston xalqlari taqdirini xal qilish fon Kaufman qo`lida bo`ldi. U bir vaqtning o`zida Turkiston harbiy okrugi qo`mondoni.

⁵³ A.Nabiyev, Mustaqillik uchun kurash yoxud parchalangan Turkiston tarixi. T., "Yozuvchi", 1998- yil, 61-b

Yettisuv kazak qo`shinlari qo`mondoni, Turkiston ichki ishlar boshlig`i va bosh proktor vazifalarin ham bajaradi. Endikda Turkiston general gubernatorlik tarkibiga: Sirdaryo, Farg`ona, Samarqand, Kasbiyortu va Yettisuv viloyatlari kirdi. Bundan tashqari bazi obektiv va subektiv sabablariga ko`ra o`lkada yarim mustaqil, mutlaqo yakka qo`yilgan. Buxoro, Xiva xonliklari saqlab qolindi. G`arbiy Turkistonni shu tariqa parchalab yuborish natijasida u yerdagi xalqlarni istagancha talash imkoniyati tug`ildi. Turkistonda milliy ozodlik harakati tarixni o`rganishda sinfiy yondashuvdan partiyaviylik nuqtayi nazaridan turib tadqiq qilish va baxo berish va baxo berishdan uzil kesil voz kechmoq va ajdodlarimizning mustaqillik uchun olib borgan qahramonona kurashini yoritishda obektivlik, ijtimoiylik, tarixiylik kabi asosiy tamoyillarga amal qilish kerak. Tarixiy haqiqat, adolat hamma narsadan ham ulug` va mo`tabardir.

Qo`qon xoni Xudoyorxonning qochishi, Nasriddinbek bilan Kaufman o`rtasidagi tengsiz va sharmandali bitim xalq ommasining yangidan katta kuch bilan qo`zg`olon ko`tarishiga sababchi bo`ladi. Bu galgi qo`zg`olon markazi Andijon edi. Qo`zg`olonchilar Po`latxon nomi bilan yurgan Is`hoq mullani Bo`taqara qishlog`ida xon deb e`lon qiladilar. Po`latxonga qarshi jo`natilgan Kaufman otryadi Andijon ostonasida mag`lubiyatga uchraydi. 1875-yil 7-oktabrda qo`zg`olonchilar xon qo`shinini tor-mor keltirib Qo`qonni egallaydilar. Nasriddinxon Xo`jandga, ruslar panohiga qochadi. 11-noyabrda Skobelev qo`mondonligidagi rus askarlari qo`zg`olonchilarni Baliqchi yaqinida zarbaga uchratdilar. Terentyev bu haqda shunday xabar beradi:

«...Baliqchi shahriga yorib kirib, dushman lageri va ku-chini egalladilar. Tong otgandan keyin artilleriya kechuvdan o`tib, shaharga o`q ota boshladi, shu zahoti Skobelev 2-yondosh batalonga qarashli 2-rota va ellikta kazak otliq o`qchilari bilan hujumga o`tadi, dushmanning chekinishiga yo`l qo`ymaslik uchun butun otliq askarlarni zambaraklar bilan shaharning orqa tomoniga yuboradi. Jangga kirgan bo`linmalar uchta istehkom-ni majaqlagandan keyin bozorni ishg`ol qiladilar va shu yerda tor ko`chadan kelayotgan qipchoqlarning katta otliq olomoniga duch kelib qoldilar... Dahshatli ur-yiqit ichida merganlarimiz do`ldek

yog'dirayotgan o'qqa uchgan qipchoqlar bor-yo'g'i 20 qadam narida to'da-to'da bo'lib yiqilar, ko'cha yuzi ularning o'ligiga to'lib ketgan edi. Bu dahshatli jahannamdan bir amallab qutulib chiqqanlar narigi yonboshda poylab turgan kazaklar-ning changaliga tushar edi. Ularni ikki chaqirim joygacha quvib borib, hech qanday rahm-shafqat qilmay qilichdan o'tkazishdi. Biz tomondan bir quyi amaldagi kishi o'lib, 8 ta yarador (shundan uchasi og'ir), uch kishi kantuziya olgan edi. Skobelev dushmanning talofatini 2000 kishi deb hisoblaydi».

Skobelev yo'1-yo'lakay barcha qishloqlarga shafqatsizlar-cha o't qo'yib yakson qilib olg'a siljib bordi. Ayniqsa, u Andijon shahrining kulini ko'kka sovurdi. Uni yovuzlarcha to'pga tutib, bombardimon qildirdi. Terentyev bunday yozadi;

«Skobelev yo'lda kelar ekan, sanasini ko'rsatmay, Kolpa-kovskiye telegramma jo'natdi, u 7-fevralda egasiga kelib tegdi. Unda Andijonda hamma narsa joyida ekanligi, aniq ma'lumotlarga qaraganda, shahar to'pga tutilgan paytda xaro-balar orasida 20000 kishi halok bo'lganligi aytilgan edi».

1907-yilda Toshkentda chop etilgan «M.D. Skobelev xotirasi»da quyidagilarni o'qiymiz: «Andijonliklar qattiq qarshi-lik ko'rsatdilar: ular har bir to'siqdan foydalanar edilar, tomlar ustidan turib o'q otishar, ko'chalar, hovlilar, uylar, masjidlar ichida yuzma-yuz olishardilar. Ularning qarshilik ko'rsatishlari oldinda hujum qilib borayotganlarni g'azablantirar, tobora junbushga keltirardi. Bozor maydonida Skobelev kolonnasi yirik xarilardan qilingan to'siqqa duch kelib qoldi. Zambaraklarimiz oldinga o'tkazildi va bir necha o'q uzilgandan keyin dushman tumtaraqay bo'lib ketdi. Turkistonliklar beshta istehkomdan tashqari, mus-tahkam qo'rg'onchaga aylangan, uylarni ham jang bilan qo'lga kiritdilar. Nihoyat, har uchala kolonna o'rdaga yetib keldi va saroyini isyonchilardan tozaladi. Qisqa muddatli hordiqdan so'ng manzilgohga qaytildi, darvoqe, yo'l yoqasidagi imoratlarning hammasiga o't qo'yib borildi. Old qismlar qayerda ketayotga-nini yong'inga qarab bilib olish mumkin edi. Otishmalar hali tinmagan, andijonliklarning harbiy uroni-«Uri», «Uri» sadolari eshitilib turardi. Andijonni butunlay vayron qilish uchun general Troitskiy Skobelevga oltita

zambarak berib, shaharni to'pga tutishga, bozor va yong'in bo'layotgan tomonlarni nishonga olishga buyruq berdi».

1876-yil 9-yanvarda Skobelev vayrona va kultepaga aylangan Andijonga kirib boradi. Po'latxon qolgan-qutgan kuchlari bilan Uchqo'rg'onga chekinishga ulgurgandi. 1876-yil 28-yanvarga o'tar kechasi Skobelev tomonidan yuborilgan jazo otryadi Uchqo'rg'onni egallaydi, barcha himoyachilar o'ldiriladi. Po'latxon bu yerdan qochib ulgurdi, biroq tez orada Marg'ilonda qo'lga olindi. Po'latxon qo'zg'olonini tor-mor keltirishda qirg'iz Shabdon Jontoyev rus zobitlariga o'z yigitlari bilan yordam beradi.

Rus qo'shinlarining Qo'qon xonligiga qarshi olib borgan urush harakatlarida Xudoyorxon tomonidan general fon Kaufmanga asir sifatida ushlab berilgan Kitob va Shahrisabz beklari Jo'rabek va Bobobek faol qatnashdilar va Xudoyorxon-dan «o'ch» oladilar.

K.P.Kaufman Qo'qonda ko'tarilgan xalq harakatini bos-tirish bahonasida Qo'qon xonligini mustaqil davlat sifatida tugatadi. 1876-yilning 19-fevralida Qo'qon xonligi bekor qilin-di va uning o'rniga Farg'ona viloyati tashkil qilinadi. Turkiston xalqlarining jallodi, Farg'ona vodiysida vahshiylarcha faoliyat ko'rsatgan jazo ekspeditsiyasining boshlig'i general Skobelev Farg'ona viloyatining harbiy gubernatori etib tayinlandi.

Xulosa shuki, o'zbek xalqi mustaqillik uchun kurashining Po'latxon rahbarligidagi qo'zg'oloni mag'lubiyati bilan uchala o'zbek xonligi ham rus podsholigiga to'la qaram bo'lib qoladi. Ammo bu Farg'ona vodiysida chor Rossiyasi bosqinchilariga qarshi kurash barham topadi, degan ma'noni anglatmaydi. Erk ozodlik va mustaqillik kurashida boy tarixiy an'analarga ega bo'lgan o'zbeklar, qirg'izlar va tojiklar bosqi-ni va kelgindi battol dushmanga qarshi kurashni davom ettirdilar, vatan tuyg'usi, nomus va or tuyg'usi ularga hech orom bermaydi. Chor Rossiyasi bosqiniga qarshi kurash markazi endi Oloy tog'lari hududlariga ko'chadi. Bu yerda To'maris ulug' an'alarining davomchisi jasur turk malikasi qirg'iz ayoli Qur-bonjon dodxoh o'z o'g'illari bilan son va qurollanish bo'yicha teng-siz chor askarlariga qarshi kurashda afsonaviy

qahramonliklar ko'rsatadi. Qurbonjon dodxoh ayol holiga qaramasdan Turkiston xalqlarining jallodi maqtanchoq va alchoq chor generali Sko-belevni u bilan sulh muzokaralari boshlashga majbur qiladi.

Chunki Skobelev nopisandlik bilan tinchlik bitimini tuzish uchun Qurbonjon dodxoh huzuriga mayor Ionovni yuborgan edi. Mag'rur qirg'iz vatanparvar ayoli Ionovni qabul qilmadi va mavqeyi o'zi bilan teng bo'lgan qo'mondon bilan muzokara boshlashga rozi ekanligini ma'lum qiladi. Natijada general Skobelevning o'zi Qurbonjon dodxoh bilan sulh muzokaralari olib borishga majbur bo'ladi va uning talablarini inobatga olish-dan boshqa chora topa olmaydi. Bu qonxo'r ustidan Qurbonjon dodxohning qo'lga kiritgan katta ma'naviy g'alabasi edi. Turkiston general-gubernatori fon Kaufman faqat 1877-yil yanvarida-gina Sank-Peterburgga axborot yuborib, Farg'ona vodiysida tinchlik o'rnatilganligidan oq podsho hazratlarini voqif etib, ko'nglini tinchlantirgan edi.

1892-yilda Turkistonda vabo tarqalgani xususida xabar paydo bo'ladi. May oyida Jizzaxda vabo bilan og'rigan kishilar topiladi. Vaboning Sirdaryo viloyatiga tarqalishiga yo'l qo'ymaslik uchun Chinoz qishlog'ida Sirdaryodan o'tadigan kechuv oldida chor hu-kumati tomonidan kuzatish manzilgohi ochiladi. 1892-yil 7-iyunda Toshkent hokimi uzoq o'ylab o'tirmay qator farmoyishlar chiqardi. Shahardagi 12 mozor yopiladi. Uning o'rniga to'rtta maxsus vabo qabristonlari ochilishi ma'lum qilina-di. Mustamlakachi ma'murlar marhumlarni eski qabristonlarga dafn etishni taqiqlab qo'ydi. Vabodan o'layotganlar ko'payib borsa ham yangi qabristonlardan atigi bittasi ochildi. Marhumlarni yashirincha eski mozorlarga ko'mish boshlandi. Bundan xabar topgan politsiya pristavi «gunohkor» mahrumlar qarindoshlarini hibsga olib, ularni to'g'ri bozor orqali haydab ketishadi. Pristav yo'l-yo'lakay ularga dag'dag'a qilib ko'milgan jasadlarni go'rdan qazib olinishini aytadi. Rus ma'murlarining musulmonchilik odatlarini oyoq osti qilishi va sharoitni poymol etishdan xalq g'azabga keladi. Olomonning g'azabi anchadan beri xalqqa zulm o'tkazib, ruslarning nog'orasiga

o'ynayotgan bosh oqso-qol Muhammad Yoqub Karimberdi o'g'liga qarshi qaratiladi.

Ziyo Muhammad boshchiligida Shayxontohur dahasidan kela-yotgan 500 kishilik to'da asosiy olomonga qo'shildi. Odamlar oqsoqol shahar boshlig'ining idorasida ekanligini eshitib, shu idora tomon yurish boshlaydilar. Xalqning bostirib kelayotganligidan xabar topgan shahar boshlig'i Putinsev Matyoqub bilan xalq oldiga peshvoz chiqadilar. Ular O'rda bozori yaqinidagi Voronsov xiyobonida uchrashadilar. Matyoqub qamchisini o'ynatib, xalq-ni so'kaverdi, olomon esa uni toshbo'ron qila boshlaydi. Bunday xatti-harakatdan kapalagi uchgan oqsoqol Sayfilla mirshab bilan shahar boshlig'ining idorasiga otda qochib yashirindi.

Putinsev odamlarni tarqatmoqchi bo'ladi. Lekin olomon oqsoqolni topib berishni talab qiladi. Bu talab rad etiladi. Xaloyiq Putinsevni ham toshbo'ron qiladi va urib yiqitadi, kaltaklashadi. Qo'zg'olonchilar binoning ichiga bostirib kiradilar. Qo'zg'olonchilarning Putinsevdan Matyoqubni ushlab berish, xalqni qiynab kelayotgan chora-tadbirlarni bekor qilish haqidagi talablari qondirilmagach, shahar boshlig'ining idorasini ostin-ustun qilib tashlaydilar.

Qurolsiz xalq askarlar yaqinlashib kelayotganligini eshitib, tarqala boshlaydi. Harbiy gubernator Grodekov unchalik katta bo'lmagan otryad bilan voqea ro'y bergan joyga yetib kelganidan «tartibsizlik» ishtirokchilaridan hech kim qolmagan edi. Qo'zg'olonchilar Matyoqubni uyiga bostirib borib, bu uyni ham ostin-ustun qilib tashladilar. Rasmiy ma'lumotlarga qaraganda, shu joyning o'zida o'nga yaqin kishi o'ldirilgan. Ammo qan-cha kishining o'lganligi haqida ma'lumot yo'q. Chunki xaloyiq o'ldirilgan va yarador qilinganlarni o'zlari bilan birga olib ketib yashirgan.

Qo'zg'olonchilarning yuzga yaqini oq podsho sarbozlari tomonidan Anhor tomonga qisib boriladi va suvga cho'ktiriladi. Qochganlar ayovsiz qiriladi. Bu yerda shahid ketganlarning soni haqida ma'lumot yo'q. Tarixga «Toshotar voqeasi» deb kirgan bu qo'zg'olon oqibatida g'alayon qatnashchilari bo'lmish 60

kishidan 8 kishi o'lim jazosiga, 3 kishi qamoqqa hukm qilinadi. Qo'zg'olon sodir bo'lgan bu joy Toshkentda «Jangob» nomi bilan mashhur.

Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori N.I.Grodekov 1892-yil 1-iyulda general-gubernatorga yo'llagan raportida qo'zg'olonning tasodifiy bo'lganini ta'kidlab, uning asosiy tashkilotchilarini topgani va hibsga olganini bayon etgan: «...shaharning osiyoliklar yashaydigan qismi oqsoqoli In'omxo'ja Umarxo'jayevni 24-iyun voqealariga olib kelgan harakatning asosiy rahbari va haqiqiy sababchisi deb hisoblash kerak. U shaxsan o'zi va eng yaqin xodimlari orqali nodon xalq ommasida tashviqot olib borgan, ma'muriyatimizning vaboga qarshi farmonlari va xatti-harakatlari xususida tashvish tug'diradigan xabarlar hamda mish-mishlar tarqatgan. Mazkur yerlik kishining eng yaqin sheriklari unga qa-rindosh bo'lgan yuzboshi Ahmadxo'ja va qudasi Usmonxo'jadan tashqari Shayxontohur dahasining qozisi Sharifxo'ja so'ngra Beshyog'och dahasining yerlik fuqarolari Badalmuhammad Xolmuhammedov va Boqijon Dadajonboyev bo'lgan. Menga ma'lum bo'lishicha, bu kishilar awallari ham shaxsan o'zlari va ko'p sonli tarafdorlari orqali olomonga boshchilik qilganlar, olo-monni hukumatning tadbirlariga qarshi qo'zg'atganlar. Bu bar-cha shaxslarning xalq orasidagi zararli tashviqiy ta'sirini hisobga olib, 24-iyun voqealari sodir bo'lgan kunning o'zidayoq barchasi-ni qamoqqa olishga farmoyish berdim».

Turkiston harbiy okrugi sudi yuzboshi lavozimida halol xizmat qilib yurt ahlining mustamlaka istibdodiga qarshi ko'-targan qo'zg'oloniga bosh bo'lgan Ahmadxo'ja Abdurashid-xo'jayevni 1892-yil 10-dekabrdagi majlisida osib o'ldirishga hukm qiladi. Ammo jamoatchilik fikrini hisobga olib bu hukm 15 yil surgun bilan almashtiriladi. Sobiq yuzboshi bu muddatni o'tash davomida salomatligini butkul yo'qotib 1907-yili Toshkentga qaytgach, ko'p o'tmay vafot etadi.

N.P.Ostroumov bu qo'zg'olonning asosiy sababi to'g'risida 1892-yil 29-iyunda bir do'stiga yozgan xatida bunday de-gandi: «Ko'p jihatdan ayb o'zimizda, albatta, ularning fe'l-_v atvorlarini va qonun-qoidalarini o'rganganimiz

yo'q va hali ham o'rganmayapmiz. Bunda ayb faqat vaboning o'zida emas, sabr kosasini to'ldirib-toshirib yuborgan so'nggi tomchidir. Noro-zilik allaqachondan beri kuchayib, yig'ilib kelmoqda edi, keyin esa boshqa noroziliklar qo'shilishi bilan birdaniga qo'zg'olon boshlanib ketadi».

3.3.Mavzuni yangi pedagogik texnologiyalar asosida o`rganilishi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohatlarning asosini jahon ta'limi standartlariga javob bera oladigan ilg'or tajribalarni ommalashtirish hamda ta'lim-tarbiya jarayonida kam jismoniy kuch sarflab, yuqori samaradorlikka erishish yo'lida amaliy faoliyat olib borish tashkil qilmoqda. Hozirgi vaqtda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari oldida turgan eng muhim va dolzarb vazifa o'quvchilarning ilm olishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, ularning tasavvurlarini kengaytirishdan iboratdir. Ana shu ishni amalga oshirish uchun bugunga qadar bir qator tadbirlar bajarildiki, natijada umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi ta'lim samaradorligining muvaffaqiyatiga zamin yaratildi. Dars samaradorligining muhim shartlaridan biri o'qituvchi va o'quvchilarning haqiqatni birgalikda izlashi va o'quvchilarning butun dars jarayonida faol ishtirok etishidir. Albatta, bu o'rinda o'qituvchiga o'zi o'zlashtirgan yangi pedagogik texnologiyalarning qo'l kelishi amaliyotida ko'rsatib turadi.

Hozirgi zamon har bir fan o'qituvchisi zimmasiga inson, uning jamiyatdagi o'rni va rolga har tamonlama yondashish vazifasini yuklaydi. Buning uchun o'qituvchi ta'lim-tarbiyaning yangi shakllari, vositalari va usullarini egallagan bo'lishi, shu bilan birga o'zi ham zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yaratishga, shaxsni tarbiyalashning yangi noa'naviy, samarali usullarini tanlashga harakat qilishi, eng muhim ijodkor bo'lmog'i lozim.

Maktablarda o'qitilayotgan ijtimoiy, shu jumladan tarix fani o'zida oliyjanob fazilatlarni mujassamlashtirgan insonni tarbiyalashda benihoya ahamiyat kasb etadi. Maktabda o'quvchi kishilik jamiyati bosib o'tgan yo'lni, ularning bosqinchilarga qarshi, o'z ozodligi va baxt- saodati, porloq

kelajagi uchun olib borgan kurashlari haqidagi asosiy ma'lumotlar hamda taassurotlarni tarix darslaridan bilib oladi. Shuningdek, tarix darslari o'quvchining hozirgi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni to'g'ri anglashga va unga to'g'ri yondosha olishida yordamlashadi.

Ma'lumki, tarix ayni juda qadimiy fanlardan hisoblanadi. Tarix fanini kelajakni ko'rsatuvchi „Ko'zgu“ desak mubalag'a bo'lmas va bu ko'zguga qarab har qanday inson o'z kelajagini oldindan belgilab olishi mumkin. Hozirgi kunda O'zbekistonning rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin egallashi onson kechyotgani yo'q. Shuning uchun tarixni o'qitish jarayonida o'quvchilarga bugungi kunning qadriga yetishini, o'tmishda yo'l qo'yilgan hatolarni takrorlamaslikni, o'tmishdagi hatolardan xulosa chiqarib olishini o'rgatmoq lozimdir. Qolaversa maktabda tarix fanini o'qitish orqali o'quvchilarda o'zlarining mustaqil va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga, milliy ong va tafakkurini o'stirishga, eng asosiysi ma'naviy barkamol shaxsni, haqiqiy vatanparvar insonni tarbiyalab voyaga yetkazishga ahamiyat bermoq darkor.

Ta'lim-tarbiya jarayonida mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun bugungi kunning pedagog hodimlari har bir darsda qiziqarli, samarali bo'lgan yangi pedagogik texnologiyalardan unumli foydala bilmoqlari kerak.

Bizga ma'lumki, tarix voqealar haqidagi ma'lumot va sanalar tashkil etadi. Ularni to'liq eslab qolishi o'quvchilar uchun bir oz qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Bu kabi ma'lumotlarni o'quvchilar xotirasida bir umrga saqlab qolishi uchun utuvchi turli xil sahna ko'rinishlari, qiziqarli o'yin usullari, krossvordlar, guruhlar bilan ishlash, baxs-munozaralarni olib borishiga bog'liq. Har bir mavzu uslubiy qo'llanmada xar xil uslubiy vositalar bilan ochib berilgan chunki bilimlar turli usulda oydinlashtirilganda o'quvchilarning o'quv faoliyati ham turlicha bo'ladi ba'zi o'quvchilarning tasavvurlarini kengaytiradi, boshqa birlari ularning tafakkur faoliyatini kuchaytiradi. Asosan esda saqlab qolish qobiliyatini o'stiradi. Shuning uchun ham, darslarda o'quvchining qobiliyati va o'zlashtirish xususiyatlariga e'tibor berishga, mavzuni yoritishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanilgan holda yondashishga harakat

qilaman. Qiziqarli usullar tarix darslarining qiziqarli va samarali o'tishiga yordam beradi deb o'ylayman va ushbu usuldan foydalanib mavzuni yoritib berishga harakat qildim.

“Mavzularning mazmuni rasmlarda nomayon” usuli -mavzuni o'quvchi o'z fikri va o'z tasavvurini rasm yoki belgilar orqali bayon etishini ta'minlab beruvchi usuldir. Bu usul orqali o'quvchilarni shu fanga nisbatan qizig'ishini uyg'otish,mustaqil fikrlashga va xulosaga kelishini ta'minlash mumkin. Qolaversa o'quvchilarning tarix darslarida mavzuni tushuntirish chog'ida eslab qolishi qiyin bo'lgan uzundan-uzun ismlar,nomlar yoki yillarni yodda saqlab qolishga, mustahkamlab olishiga yordam beradi.

“Mavzularning mazmuni rasmlarda namoyon” usulini qo'llash bosqichma-bosqich va ma'lum bir muddat mobaynida amalga oshiriladi. Har bir bosqich mobaynida o'quvchilarning fikrlash doirasi kengayib,shakllanib boradi va so'nggi III bosqichda o'quvchilar to'liq biror-bir mavzuning mazmunini o'z fikri va o'z tassavvurini rasmlar orqali bayon eta oladi.Ular quyidagi bosqichlardan iborat:

Bosqichlar

<i>I-bosqich</i>	“Mavzularning mazmuni rasmlarda namoyon” usulini birinchi marta qo'llashda o'quvchilarda ko'nikma hosil qilish uchun o'qituvchi bir mavzuni olib,shu mavzuning asosiy mazmunini rasm yoki belgilar orqali tasvirlab beradi.(Bu usul haqida to'liq tushunchalar keyingi bosqichlarda berilgan. Shu II va III bosqichlarga tayangan holda o'qituvchi bu usulni qo'llashi kerak)
<i>II-bosqich</i>	Bu usul o'quvchilar bilan yakka tartibda ishlash jarayonida amalga oshiriladi.Ya'ni har bir o'quvchiga sinfda o'tilgan mavzuning mazmuni o'z g'oya va tasavvurlarini turli-tuman belgilar va rasmlar orqali bir varaqqa chizib kelish uyga vazifa qilib beriladi. Rasm va belgilar cheklanishlarga ega bo'lmaydi. Mavzuning mazmunini rasmlar orqali aks ettirish chog'ida eslab qolishi qiyin bo'lgan ism,nom yoki yillar,rasm va belgilarga qo'shib yozib qo'yilishi mumkin.Chunki yoddan chiqadigan

	uzunroq ism, yil rasm yoki belgiga chizib qo'yilsa, o'quvchi o'z fikrini tushuntirish chog'ida yoddan ko'tarilganda yuqoridagi yozib qo'ygan ism, nom va yilga qarab yodga solishi va o'z fikrini davom ettirish mumkin. Keyingi darsda o'quvchilardan birma-bir bu rasmlar orqali nimani aks ettirgani so'ralib, fikrlari tinglanadi va chizib kelgan rasm yoki belgilari qanchalik mavzuning mazmunini keltirib chiqarayotganligi o'quvchilar bilan birga tahlil qilinib, xulosa yasaladi va shu o'quvchiga yo'nalish beriladi. Yakka tartibda foydalanish natijasida, o'quvchining fikrlash doirasi kengayib boradi va keyingi III bosqichdagi guruhlar bilan bu usuldan foydalanishiga zamin hozirlanadi. Bizga ma'lumki guruhlar bilan ishlanganda ayrim past o'zlashtiruvchi o'quvchilar o'z fikrlarini bayon etaolmasligi mumkin. Buning oldini olish maqsadida bu usul har-bir o'quvchidan alohida-alohida so'raladi va hamma o'quvchini Savol-javobda faolroq qatnashishini ta'minlaydi. Yakka tartibda bu usuldan 5-6 dars davomida foydalanish mumkin. So'ngra III bosqichdagi „Mavzularning mazmuni rasmlarda namoyon“ usulining guruhlar bilan ishlash tartibiga o'tiladi.
<i>III-bosqich</i>	Guruhlar bilan ishlash natijasida „Mavzularning mazmuni rasmlarda namoyon“ usulining III bosqichi quyidagicha amalga oshiriladi.

1. Ko'proq o'tilgan bob yoki bo'lim yuzasidan mavzularni takrorlash chog'ida qo'llash zarur.
2. Bu usul 8-9-10-sinflarda o'tilayotgan dars jarayonida amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.
3. Dastavval guruhlar belgilanadi. O'quvchilar guruhlariga 5-7 kishidan bo'linishlari kerak. Guruhlarga bo'lish chog'ida ularning kuchlari teng bo'lishiga ahamiyat berish lozim. Har bir guruhga 1-2 ta yaxshi o'zlashtiradigan o'quvchilarni va unchalik yaxshi o'zlashtira olmaydigan o'quvchilarni joylashtirish kerak. Shunda bu usuldan samarali foydalanishga sharoit tug'iladi. Agar guruhlarini bo'lish chog'ida guruh kuchlari teng bo'lishiga ahamiyat berilmasdan bir guruhga yaxshi o'zlashtiradigan o'quvchilar, ikkinchi guruhga yaxshi o'zlashtira olmaydigan o'quvchilar joylashib qolgudek bo'lsa, bunday vaziyatda guruhlar o'z fikrlarini, g'oyalarini, e'tirozlarini to'liq bildirsa olmaydi.

4. Har bir guruh o'tilgan mavzu nomlari yozilgan kartochkalardan birini guruh sardori tanlab oladi va shu mavzuga tayyorgarlikni boshlaydi .
5. Guruhlar o'zlariga tushgan mavzularni o'z g'oya va tasavvurlari asosida turli-tuman belgilar va rasmlar orqali yoritib berish-lari kerak. Rasm va belgilar cheklanishlarga ega bo'lmasligi kerak. Lekin guruh o'ziga tushgan mavzuni belgi yoki rasm orqali mavzudan chiqmagan holda o'z fikrini tasavvuri orqali yoritib berish uchun imkon berilishi lozim.
6. Rasmlar, belgilar orqali mavzuni aks ettirish chog'ida eslab qolinishi qiyin bo'lgan uzundan-uzoq ism, nom yoki yillar, rasm va belgilarga qo'shib yozib qo'yilishi mumkin. Bu esa o'quvchilarda juda ko'plab uchraydigan, ya'ni biror-bir mavzuni tushuntirayotganda, o'z fikrini bayon etayotganda biror-bir uzun so'zlar (oy, yil, ism, nom) esdan chiqib qolsa, o'quvchi shu yerda to'xtab qolib, aytadigan fikri ham esdan chiqarishi mumkin. Shuning uchun yoddan chiqadigan uzun ism va yil rasm yoki belgiga qo'shib chizib qo'yilsa, o'z fikrini tushuntirish chog'ida yoddan ko'tarilganda ham yuqoridagi ism, nom va yilga qarab yodiga solishi va o'z fikrini davom ettirishi mumkin. Qolaversa eslab qolishi qiyin bo'lgan nom, ism, yil qaytadan mustahkamlanadi.
7. Rasmlar, belgilar chizib bo'lindi. Shundan so'ng har bir guruh o'ziga tushgan mavzuga oid chizgan rasmi yoki belgisini tushuntirishi chog'ida bu rasmni nima uchun chizganligini, bu belgi qaysi voqeani tasvirlab berishi mumkinligini aytib o'tadi.
8. Bu usulni iloji boricha, birinchi marta o'tkazilishi chog'ida (I bosqichda ko'rsatilib o'tilgan) o'qituvchining o'zi biror-bir mavzuni olib o'zi qiziqarli belgilar, rasmlar orqali bayon yetib, izohlab bersa maqsadga muvofiq bo'ladiyu. Bu usul haqida o'quvchilarda yanada qiziqish ortadi va o'quvchilarda bu usulni mustaqil bajarishlari uchun ko'nikma hosil bo'ladi.

XULOSA

Xulosa shuki XVI-XIX-asrlarda vatanimiz hududidagi xalqlar hududiy tarqoqlik, xo`jalik va iqtisodiy tushkunlik holatida bo`lsalarda fan madaniyat taraqqiyotida bir qator ijobiy yutuqlar va salmoqli muvoffoqiyatlarga erishdilar.

Bu bilan ular jaxon madaniyati va sivilizatsiyasi taraqqiyotiga munosib ulushlarini qo`shdilar. Ammo XVII-XIX asrlarda O`rta Osiyo va undagi davlatlar jaxon sivilizatsiyasi jarayonidan tobora chetda qolaverdi, ilg`or davlatlardan orqada qoldi. Yurtboshimi Islom Karimov xonliklar davri tarixiga yangicha nazar tashlar ekan, tarixchi mutaxassislariga quyidagi savollar bilan murojat qildi: “Nega jaxonda Axmad Farg`oniy Muxammad Xofiziy, Ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Imon Buxoriy, Amir Temur, Mirzo Ulug`bek, Alisher Navoiy, Bobur kabi buyuk siymolarni bergan bu millat XVII-XIX asrlarga kelib to shu chog`gacha erishgan yuksalish jarayonlaridan tushib ketdi? Nega so`ngi uch asr mobaynida boshimiz qaloqlikdan chiqmay qoldi? Ajdodlarimizning qattiq qarshiligiga qaramay chor Rossiyaning o`lkamizni nisbatan oson zabt etishida mana shu qaloqlikning ham o`rni bo`lmaganmikin.”⁵⁴

Darxaqiqat XVII-XIX- asrlar jaxon tarixiga moddiy va madaniy yuksalish davri bo`lib qaralganligi ma`lum. Xususan Yevropadagi bir qator mamlakatlarda ishlab chiqarish sezilarli darajada o`sdi, zavod fabrikalar qurilib, yangi texnik uskunalar bilan jixozlandi, temir yo`llar qurildi dengiz yo`llari ochildi, mehnat unumdorligi oshdi, odamlarning moddiy va madaniy turmush darajasi ko`tarildi. O`rta Osiyo xonliklari ana shunday ijobiy jarayonlarda chetta qoldi. Qaloqlikka yuz tutti

Bu qaloqliklarning ildizi, sabablari bor edi.

Birinchidan asrlar davomida bir butun bo`lib kelgan mamlakatning, yagona iqtisodiy va madaniy makonda yashab kelgan xalqning uchga bo`linib ketishi xonliklar o`rtasidagi to`xtovsiz urushlar har bir xonlik ichida boshbosh boylik va hokimiyat uchun o`zaro tinimsiz davom etgan ikki nizo va urushlar butun mamlakatni vayron qiladi. Bu jaxon guruhbozlikni keltirib chiqaradi,

⁵⁴ Karimov. I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q T., “Sharq” 1998-yil 9-b

qabilalarning etnik aralashuviga, bir xalq bo`lib qovushishiga jipslashishiga xalaqt beradi. Davlat darajasida ham viloyatlar darajasida ham xalq, yagona vatan tushunchasining qadri anglab olinadi.

Ikkinchidan O`rta Osiyo davlatlarining asrlar davomida o`zgarmay kelayotgan davlat boshqaruv usuli, tuzumi tor doiradagi hukmdorlarning taraqqiyotiga g`ov bo`lib keladi.

Uchinchidan o`zbek xonliklari o`rtasida ichki iqtisodiy va savdo borligi shakllanadi. Natijada bu davlatlar hududlarida yashagan xalqlar o`rtasida yagona xalq, yagona millat, yagona vatan xis tuyg`usi shakllanadi. Aksincha, bunday oliyjanob xistuyg`ularning rivojlanishi va kamol topishiga to`sqinlik qilindi. Bu XVII-XX asrlarda O`rta Osiyoda iqtisodiy va siyosiy xayot turg`unligining eng asosiy sabablaridan biri edi.

To`rtinchidan, qishloq xo`jaligida yerga xususiy mulkchilik qilishdan iborat, ishlab chiqarish munosabatlari saqlanib qolganligidir. Yer barcha boyliklarning manbayidir. Unga bo`lgan mulkchilik shakllari ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantiruvchi asosiy omil bo`lib hioblanadi. Yevropa va dunyodagi boshqa mamlakatlarda mavjud yerga egalik qilishning xususiy mulk shakli qishloq xo`jaligi taraqqiyoti va dastlabki kapital jamg`arish jarayonlarining qudratli vositasi bo`ldi ⁵⁵

Osiyoda xususan O`rta Osiyo xonliklarida esa mulk shakllari va dehqonchilik shakllari asrlar mobaynida o`zgarmadi. Yerga xususiy mulkchilikka asoslangan ishlab chiqarish munosabatlari o`zgarishsiz qolaverdi. Yerning asosiy egasi ilgarigidek oliy hukmdorligicha qoldi. Xonliklarda oliy hukmdor yerning birdan bir egasi bo`lib, yer ishlovchilariga dehqonlarga ijara tarzida xatlab biriktirilgan edi. Dehqon yer egasi emas, yerdan olinadigan xosilning egasi edi xolos. Shu bois, dehqon yerni asrab avaylashga, uning unumdorligini oshirishga intiladi. Hukmdor yerni foydalanish uchun mahaliy yer egalari va masjidlariga ulashardi.

⁵⁵ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. T., "Sharq", 1998, 147-b

Beshinchidan, xonliklarda sanoat rivojiga e'tibor kuchaymadi, oltingugurt, rangli metallar, marmar, toshko'mir, neft kabi boyliklarga serob konlar bo'lsada ularno qazib olish, tog'-kon ishlarini rivojlantirish kemasozlikni yo'lga qo'yish masalalari hal qilinadi.

Oltinchidan, tovar pul munosabatlari rivojlantirilmadi. Daromad iste'mol va qo'shin harajatlarini zo'rg'a qoplab kapitalga qilinmadi. Pul, oltin, kumush xon va amaldorlarning xazina to'plash manbayi bo'lib qolgan edi.⁵⁶

Yettinchidan, xonliklarning savdo munosabatlarlarida xamon ayirboshlash usuli davom etardi. O'rta Osiyo jaxon bozoridan ajralib qolgani ustiga bu yerda yagona ichki bozor ham tashkil topmadi.

Sakkizinchidan, XIX-asr ikkinchi yarmida vatan istiqboli uchun qayg'uradigan odamlarni bir g'oya va bir ezgu maqsad yo'lida birlashtira oladigan hamda ortidan ergashtira oladigan yo'l boshchilardan bo'lmadi. Buxoro amirligiga xam, Qo'qon va Xiva xonliklarida xam shunday arbob tarix saxifasiga chiqmadi. Bosqinchilarga ko'ksini qalqon qilib ko'hna turon jangovar shavkatini namoyish qila oladigan va Turkistonni bir umuminsoniy makon uy deb bilgan yurtboshi topilmadi.⁵⁷

Xullas, O'rta Osiyodagi yuqorida tavsiflangan omillar, bu yerdagi iqtisodiy va harbiy tang holat o'ziga qo'shni bo'lgan mamlakatlarni o'z mustaqilligiga aylantirish siyosatini avj oldirayotgan chor Rossiyani saltanatiga juda ham qo'l keladi. Mintaqadagi ijtimoiy siyosiy madaniy qaloqlik, parokandalik o'zaro nizo va urushlar pirovar natijada O'rta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi va mustamlakaga aylantirishiga olib keldi.

⁵⁶ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., "Sharq", 1998, 147-b

⁵⁷ Ўша жойда.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. T., “Sharq”, 1998.
2. A.Nabiyev Mustaqillik uchun kurash Yoxud parchalangan Turkiston tarixi. T., “Yozuvchi” 1998.
3. G.Xoliyev. X.g`ulomov. O`zbekiston tarixi. T., “Universitet” 1997.
- 4.O`zbekiston tarixi. R.G.Muqminova, N.N. Habibullayev, G.A.Azamova, E.E.Karimov, A.A.Tojiboyev. tahr. T.,”O`qituvchi” 1994.
5. N.Norqulov, U.Jo`rayev. O`zbekiston tarixi. T.,”Sharq” 2010.
6. M.G. Ahmedov. O`rta Osiyo me`morchiligi tarixi. T. “O`zbekiston” 1995.
7. R.Shamsiddinov, Sh Karimov, O`. Ubaydullayev. Vatan tarixi. T. Sharq. 2003.
8. Azamat Ziyo. O`zbek davlatchiligi tarixi. T., “Sharq”, 2000.
9. H. Bobobekov. Qoqon xonligining qisqacha tarixi. “Turon tarixi” jurnali. To`plam. N-2 T., “Fan”, 2008.
10. Sh. Yusupov. Buni umr derlar ... Jamiyat va boshqaruv. 2002 y. 1-son.
11. Mirzo Olim, Maxdum Roji. Tarixi Turkiston. T. “Yangi asr avlodi”, 2008.
12. Ishoqxon Jo`naydullaxo`j` o`g`li Ibrat. Farg`ona tarixi. T., “Ma`naviyat”, 2005.
- 13.mirza Olim Mushrif. Qo`qon xonligi tarixi. (Ansov us-salotin va tavorix ul- xabonin) T., “G`.G`ulom”, 1995.
- 14.Muhammad Aziz Marg`iloniy.Tarixi Aziziy. T: “Ma`naviyat”, 1999.
15. Sh.Vohidov. Qo`qon xonligida unvon va mansablar “Sharq yulduzi”, T.,!995, №3,4.
16. R.Nobiyeв. из историм Кокондского хантва T.,”Fan”, 1973.